

Kuch – bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 17-noyabr, chorshanba № 47 (9372)

Xalq ziyolilari gazetasi

“OMMALASHTIRISH”

“RASMIYLASHTIRISH”GA
O'ZGARTIRILSA, HAQIQATGA YAQIN BO'LARDI

2-3-betlar

Direktor

va ularning o'rinbosarlarini
lavozimi bo'yicha toifalash vaqti kelmadimikan?

2-bet

Tashqi ko'rinishga
qarab baho bermang!

6-bet

“Navoiy
ensiklopediyasi”ning
tarixiy taqdiri

8-9-betlar

“Bolani
rus maktabga
berish kerak!..”

10-bet

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



O'qituvchi ish-tajribasini ommalashtirish mexanizmini qayta ko'rib chiqish lozim. Songa emas, sifatga e'tibor qaratilsagina, natijaga erishish mumkin. Bu o'ta muhim jarayon bo'lishi kerak. Uning natijalari muayyan muddat davomida o'rganilib, aniq tahlillarga asoslansagina ommalashtirishga tavsiya berish zarur. Lekin bugungi kunda bir-ikkita ko'chirma maqola-yu, dars ishlanmalari bilan ommalashtirishlar amalga oshirilayotgani sir emas. Xom mahsulotlarni metodik qo'llanmalar deb ommalashtirish hollari ham uchrayotgani achinarli hol.

Mamlakat RAVSHANOVA



Alifboni isloh qilish yana kun tartibiga chiqdi. Eng qizig'i, alifboni o'zgartirayotgan olimlarning hech biri lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosini ishlatmaydi. Alifboni o'zgartirishdan barcha ta'lim muassasalari birdek jabr ko'radi. Ma'naviy yuksalishda vaqtdan yutqazishimiz aniq. Maqsadlar respublikaning barcha aholi qatlamlari uchun mushtarak bo'lishi zarur va shart. Ustoz ko'rman shogirdlardek har maqomga yo'rg'alayversak, judayam ko'p narsani boy beramiz.

Norchuchuk NORMURODOVA



Ta'lim bemalol isloh qilinadigan, ammo hech islohoti tugamaydigan tizim bo'lib qoldi. Hali qarasangiz, chet el tizimini joriy qilamiz deyishadi, hali eplab bo'lmaydigan elektron kundalik va boshqalar. Biri o'zini oqlamay turib ikkinchisi joriy qilinmoqda. Eng ko'p jabrni o'qituvchilar chekmoqda. Ish vaqtimiz tartibsiz, ovqatlanish tartibsiz, doimiy stress, ko'pchilikda immunitet pasayishi, boz ustiga yangi-yangi vazifalarning ortishi o'qituvchilar sog'ligiga keskin ta'sir qilmoqda. Lotin yozuvi isloh qilinsa, bu “yangilik”dan eng ko'p qiynaladigan o'qituvchilar bo'lishi turgan gap.

Shabbona MIRVALIYEVA



6-bet

Taklif

Xalq ta'limi tizimida amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlar samarasini ko'ra boshladik. Asosiy maqsad, albatta, yurt kelajagi bo'lmish o'quvchi yoshlarning sifatli ta'lim olishlarini ta'minlashdan iborat. Bu borada qisqa muddatda yangi-yangi maktablar qurilmoqda, o'nlab yillar davomida e'tibordan chetda qolgan maktablarga har tomonlama e'tibor qaratilmoqda.

ko'tarayotgan masala bu maktab direktori va ularning o'quv va ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha o'rinbosarlarini maktabda olib borayotgan alohida ishlari uchun toifalashni joriy etishdir. Bu bo'yicha toifa berishda baholash uchun zaruriy talablarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Ya'ni maktabda o'qituvchilar salohiyati, bitiruvchi o'quvchilarning bandligi va oliy ta'limga qamrovi, maktabda o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy muhit, maktab o'qituvchi va o'quvchilarning tuman, shahar, viloyat, Respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov, tadbirlardagi ishtiroki, maktabning obodligi, ko'kalamzorlashtirilgani, o'quvchi yoshlar uchun yaratilgan

"Ma'rifat" gazetasining 2021-yil 2-iyun sonida bosilgan "Maqola chiqargan o'qituvchining ish-tajribasi ommalashgan hisoblanadimi?" maqolasi e'tiborimni tortdi va bu borada o'z mulohazalarimni bildirishni lozim topdim.

Muallif Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan "Ilg'or ish-tajribalarni o'rganish va ommalashtirish" tartibi haqida o'qituvchilarga mufassal tushuncha berishga harakat qilgan. Unda Vazirlar Mahkamasining 823-qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rta maktab ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning direktor jamg'armasini tashkil etish va uning mablag'laridan foydalanish tartiblari to'g'risida"gi nizomga Vazirlar Mahkamasining 831-qarori bilan kiritilgan o'zgarishlardan biri sifatida maqola yozish bandining olib tashlangani aytiladi. "Maqola yozib kimlardandir jimjimador sertifikat kutish, buning uchun maktab ma'muriyatidan ustama talab qilish mulq noto'g'ri", deb yozadi muallif.

Albatta, maqola yozish bandining olib tashlanishi ustama uchun pulga maqola yozdirgan, qanaqadir tijorat kanallari egalari uchun cho'ntagini to'ldirib, jimjimador sertifikat egasi bo'lgan "ijod ahli"ning g'olibona yurishini to'xtatgandir. Bu borada muallif haq. Haqiqatan, ikki jumla eplab tuza olmaydigan ayrim "ijodkor"larning kiprik qoqmay maqola yozganman deganlarini ko'rib lol qolgan paytlarim ham bo'ldi. Ammo ijodga moyil, tabiatan ijodkor ustozlar-chi? Chin ko'ngil amri bilan yozilgan maqolalar-chi? Umuman, maqola deganda maqolaning sifati, saviyasi, ko'tarilgan muammoning dolzarbligi, zalvori e'tiborga olinadimi yoki mittigina fikr ham maqola bo'la oladimi? "O'rmonga o't ketsa..." deb qarab turaverilsa, respublikada sanoqli ijodkor o'qituvchilarni ham yo'qotib qo'yamaymizmi?! Umuman ta'limdagi muammolarni ko'tarib chiqish bilan ularni bartaraf qilish uchun jon kuydirayotgan ustozlarni qo'llab-quvvatlaydigan ta'lim fidoyilari bormi?! Yoki yurtimizga ijodkor ustozlar kerak emasmi?!

Maqola muallifi ommalashtirish jarayonini dona-dona bayon etgan, unda sanalgan yig'iladigan qog'ozlar-u ajratilgan muddatlar bu hujjatlarni yig'ish uchun kiriladigan sanoqsiz eshiklar mufassal bayon etilganki, beixtiyor buyuk Navoiyning mashhur qahramoni Farhodning Yunon eliga safari yodimga tushdi. Adashmasam, "yo'lda 3 ta mudhish balo bor", deyiladi dostonida. Agar Farhodning oldiga shunday talablar qo'yilsa, balki Yunonistonga borish fikridan voz kechardimi?!

Filolog sifatida biroq mublag'a qilgan bo'lsam uzr. Albatta, bu o'rinda muallifning aybi yo'q. U amaldagi ommalashtirish tartibini yoritib bergan xolos. Yozayotganlarimni rasmiyatchilikka asoslangan tartibga isyon sifatida qabul qiling.

"Ommalashish" aslida nima?

O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'zga shunday ta'rif beriladi: *Ommalashish* — *omma*, ko'pchilik, xalq orasida yoyilmoq, keng tarqalmoq. Gazeta, jurnal, radio va televideniye ommaviy axborot vositasi deyilishi shundan, albatta. Endi masalaga mantiqan qaraylik. O'qituvchining respublika nashrida e'lon qilingan ishini ommalashmadi, deyishda qanchalik mantiq bor? Yoki xalq bu ustoz hali ommalashdi degan hujjatini olgani yo'q, olsagina maqolasini o'qiydiki, tajribasidan foydalanamiz, deb gazetani bir chetga uqlotmaydi-ku.

Taklifim: Respublika gazetasida chiqqan maqola muammoning mazmuniga, dolzarbligiga ko'ra tahlil qilinib, arziya ommalashish sifatida tan olinsin. Agar, hech qanaqa maqola ommalashish uchun tan olinmaydi, deyilsa, "O'qituvchining ilg'or ish-tajribasini

Direktor va ularning o'rinbosarlarini lavozimi bo'yicha toifalash vaqti kelmadimikan?

Albatta, barcha maqsadlar, maktab ta'limini rivojlantirishga qaratilayotgan ushbu yillarda, hali tizimda ba'zi bir e'tiborimizdan chetda qolib ketayotgan muammolar ham yo'q emas.

Shulardan biri tizimning eng quyi rahbarlari, maktab direktori va uning o'rinbosarlarini lavozim vazifalariga ko'ra toifalash masalasi. To'g'ri, maktab rahbariyati, u yoki bu pedagogik yo'nalishda toifadan o'tish uchun attestatsiyaga jalb etilishi bor gap, lekin bugun aynan men

imkoniyatlar, maktab rahbarlarining dunyoqarashi, saviyasi kabi yo'nalishlar.

Lavozim vazifalaridan kelib chiqib toifalash amaliyoti joriy etilsa, o'ylaymanki, bu pirovardida maktab rahbarlarining o'z ustida ko'proq ishlashiga, ta'lim sifatining yanada ko'tarilishiga, tizim rivojiga olib keladi.

Davron AKBAROV,
Abdulla Avloniy nomidagi Xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti magistranti

Mulohaza

Diqqat, tanlov!

"Yangi O'zbekistonning yangi ustozlari" mavzusida tanlov e'lon qilinadi... G'olib qanday mukofotlanadi? 5 nafar g'olibga Gran pri diplomi topshiriladi. Qolgan barcha ishtirokchilarga ijodi joylangan kuni tanlovning oliy darajali diplomi taqdim etiladi."

Oilamizda ikki o'qituvchi bor: onam va opam. Ular ham yuqoridagi kabi tanlovlarda qatnashib turishadi. Ba'zan ixtiyoriy, ba'zan majburiy. Bugungi kunda o'qituvchilarning OAV, ijtimoiy tarmoqlarda faol chiqishlari odat tusiga aylanib qolgan. Garchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rta maktab ko'rsatgan xodimlarining moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida ko'rsatilgan o'quv yilida ommaviy axborot vositalari, ta'limga oid veb-saytlardagi chiqishlari, ilmiy-metodik jurnallardagi hamda turli konferensiyalarda maqola, tezis, ishtiroqli rejalari bilan qatnashish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini yanada yaxshilashga oid ishlari bo'lishi talabi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa-da, o'qituvchilar bu an'anadan hamon voz kechmayapti. Ayrim maktablarda esa bekor bo'lgan talabdan pedagoglar, hatto direktorlarning ham xabari yo'q.

Gazeta, jurnallarga maqola yozdirib chiqarish ko'plab muhokamalardan so'ng sezilarli darajada kamaydi, rost. Biroq ijtimoiy tarmoqlardagi tanlovlarda

tasdiqlanmagan, rasmiy kuchga ega bo'lmagan diplomlarni qo'lga kiritish, eng ko'p "yoqdi" ishoralarini yig'ish musobaqalarida qatnashish kabi "ko'zbo'yamachilik" holatlari tez-tez ko'zga tashlanayapti. Ammo uning natijasidan zarari ko'proq.

Ijtimoiy tarmoq yoki internet saytlarida o'zini ko'rsatishni istaydigan o'qituvchilar audiovizual shakldagi materiallar tayyorlashi lozim. Albatta, bu jarayonda agar ko'rgazma vositalarini o'zi tayyorlasa o'qituvchining axborot bilan ishlash va AKTdAn foydalanish malakasi namoyon bo'ladi. Biroq sir emaski, o'qituvchilarning ko'pchiligi videoroliklar, hatto slaydlarni tayyor shablonlar asosida tayyorlatishadi. Ayni holatda o'qituvchi ham vaqtini, ham naqdini yo'qotadi. Muhimi bu emas. Asosiysi, bir qolipda tayyorlangan materiallar kasbiy ko'nikmalari rivojlanmay bir joyda to'xtab qolishiga olib keladi. Aslida, pedagogikaning mohiyati kishini fikrlashga, o'qishga, o'rganishga undash ekan, o'qituvchining o'zi izlanishdan to'xtab qolishi salbiy oqibat sanaladi. Zotan, "Pedagogika fikrlay oladiganlarning barchasini jo'shqin

hayot singari mulohaza qilishga undashi kerak", degan edi mashhur rus pedagoglaridan biri Redkin.

Yana bir jihat, ijtimoiy tarmoqlardagi tanlovlarning "oliy darajali diplom"larini qo'lga kiritish uchun o'qituvchi tashkilotchilarga pul o'tkazishi kerak. Masalan, yuqoridagi tanlovni o'tkazayotgan "Telegram"dagi "Ziyolilar minbari" kanaliga materiallar joylashtirish va diplom olish bepul emas. Bir so'z bilan aytganda "Puling bo'lsa xaltada...". Kanalga bir kunda o'rta o'ndan ortiq videorolik va slaydlar joylashtirilayotgani tashkilotchilarning asl maqsadini namoyish qiladi go'yo. Mohiyatan ziyoli qatlam vakillari sanalmish o'qituvchilar esa mana shu tijoriy charxpalakni aylan-tirishda davom etishyapti.

O'z kasbining chinakam fidoyilari uchun esa respublikamizda "Ustoz" milliy tanlovi hamda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ko'plab loyihalar e'lon qilib boriladi. Bunday tanlovlarni o'tkazishdan maqsad, ijodiy fayllarni qog'oz va disk bilan to'ldirish emas, balki o'qituvchilar mahoratini boshqa hamkasblariga ham namoyish qilish, tajriba almashnuvini ta'minlash hamda o'qituvchilarda kasbga bo'lgan mehnat oshirishiga asoslangan. Yoxud xalqaro miqyosdagi tanlovlarda qatnashish ham ancha samarali. Ijtimoiy tarmoqlarning soxta va kichik tanlovlarga sarflaydigan vaqt va quntini esa til o'rganish, kasbiy mahoratni oshirishga yo'naltirish eng to'g'ri qadamdir.

Sadoqat SAMANDAROVA

Dolzarb mavzu

"Ommalashtirish"

"rasmiylashtirish"ga o'zgartirilsa, haqiqatga yaqin bo'lardi

ommalashtirish" jumlasini "o'qituvchining ilg'or ish-tajribasini rasmiylashtirish" deb o'zgartiraylik. Bizda ta'lim emas, rasmiyatchilik muhimroq, shunday ekan hamma narsani o'z nomi bilan atagan ma'qul.

Ommalashish jarayonining tuman, viloyat, respublika deb bosqichlab qo'yilishidan kim manfaatdor? Ommalashish tartibiga ko'ra, ommalashish uchun o'qituvchining ishi tayanch maktablarda tumanda 3 oy, viloyat miqyosida 2 oy, respublika miqyosida 1 chorak davomida o'rganilishi, maqola muallifi ta'bi bilan aytganda, aprobatyadan o'tkazilishi kerak ekan. O'qituvchi o'z ishidagi bir afzallik ko'rgan-diki, uni boshqalarga ilinyapti. Kinga ma'qul bo'lsa, dars jarayonida qo'llaydi yoki qo'llamaydi. Respublikada ommalashdi degani — tuman va viloyatda ham ommalashdi, degani emasmi? Bu tajriba foyda keltirsa keltiradiki, ziyoni yo'q. O'qituvchi uch bosqich uchun kerak bo'ladigan o'nlab qog'ozlarga ega bo'lish uchun necha eshiklarga sarg'ayishi, kimni "opa", kimni "uka" deyishi lozim. Mana, bizda ta'lim nima uchun deysinib turaveradi, manfaat yo'lida xushomad, korruptsiya gullab-yashnayveradi. Eng yomoni, izzat-nafsi butun, qadrli vaqtini foydasiz yugur-yugurlardan qizg'anadigan ustoz ishini ommalashtirmay qo'ya qoladi.

Taklim: Kimki o'z ishini mukammal hisoblasa, respublikada ommalashtirishga tavsiya qilsin. Tuman, viloyat degan to'siqlardan allaqachon voz kechish payti yetgan. Bunday bosqichlash ustozlar uchun ham, ta'lim uchun ham manfaatli emas.

"Maqola yozishingiz uchun siz shunchaki ijod qilishingiz kerak", deb yozadi muallif. Ijodga shunchaki qarash mumkinmi?!

Hurmatli maqola muallifi, "O'zbekiston ovozi" gazetasining 2019-yil 30-aprel sonida bosilgan "Ona tili darsliklaridagi xatoliklar, chalkashliklar va murakkabliklar haqida", "Ma'rifat" gazetasining 2021-yil 14-iyul sonida chop etilgan "Tekinga kafan bo'lsa o'lmog' kerakmi?", 2021-yil 20-iyul sonidagi "Qachon savodxonlikka erishamiz?" maqolalarini erinmay o'qing, tahlil qiling. "Aprobatyada" degan talab bilan yuqoridagi maqolalarga bir nigoh tashlab ko'ring.

Keltirilgan birinchi maqolada yillar davomida butun respublika miqyosida amalda qo'llanib kelayotgan 5-, 6-, 7-, 8-, 9-sinf "Ona tili" darsliklari hijjalab ilmiy tahlil qilingan, murakkab, ilmiy jihatdan chigal va noqulay o'rnlarga tanqidiy munosabat bildirilgan. Bugun maqolada sanab o'tilgan kamchiliklar darsliklardan olib tashlandi, chigalliklar bartaraf etildi. Butun respublikada "Ona tili" darsliklarining o'zgarishiga ozmi-ko'pmi sabab bo'lgan, demakki, ona tili ta'limining samarali bo'lishiga hissa qo'sha olgan ustoz bo' xulosalarga kelish uchun darsliklarni necha yil aprobatyadan o'tkazgan, deb o'ylaysiz? Nahotki, ustozning 20-30 yillik tajribasi evaziga chiqargan ilmiy xulosalari-yu maktab o'qituvchisi sifatidagi zahmati bitta ommalashtirishga, to'g'rirog'i, ommalashtirildi, degan bir parcha qog'ozga (amalda u allaqachon ommalashib bo'ldi, darslik mualliflari bo'lgan tajribali tilshunos olimlar tomonidan o'rganilib darsliklar o'zgartirildi) arzimaydi?

2-maqola mualliflari — el tanigan olimlar, ilmiy kishilari. Bunday tahlil uchun, fikrni shunchalik aniq ifodalash uchun qanchalik chuqur ilmiy tafakkur zarur. Bu fikr bilan maqolani shunchaki yozib bo'lmaydi, demoqchiman.

3-maqolada respublika aholisining savodxonligiga mas'ul bo'lgan "O'zbek tilining imlo qoidalari" ilmiy jihatdan tahlil qilib berilgan. Ilmiy tahlilning

naqadar nozikligi, ilmiy xulosalar yillar davomida chiqarilishini va bu uchun javobgarlik mas'uliyatini ilm kishisi tushunadi, xolos.

Ilm bilan shug'ullangan inson olim sanaladi, ulug'lanadi. Maktabda o'qituvchilik faoliyatidan ortib ilmiy salohiyatini namoyon etayotgan, fani doirasida ilmiy mukammallikka intilayotgan ustoz uchun qanday rag'bat bor?

"Ish-tajribaning ommalashishi bitta maqola yozib hal qilinadigan jarayon emas. Buning uchun bir qancha hujjatlarni rasmiylashtirishga to'g'ri keladi", deyiladi maqolada. Bu jumlaning o'ziyoq ommalashtirish tartibi rasmiyatchilikdan iborat chigal jarayon ekanini, yangiliklarning ta'limga tezroq kirib borishi yo'lida to'siqdan boshqa narsa emasligini isbotlab turibdi. Demak, bizda nimadir yaratishdan ko'ra uni yuzaga chiqarish mushkulroq.

Ommalashtirish tartibida: *"Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisini aniqlash yo'nalishida o'tkaziladigan respublika miqyosidagi tanlov g'oliblari, final ishtirokchilarining ish-tajribalari respublikada to'g'ridan to'g'ri ommalashtiriladi", deyiladi. Mana, qog'ozbozliksiz ham bo'larkan-ku. 20 dona test ishlab yoki bitta esse yozib, 45 daqiqa dars o'tib ommalashish mumkin ekan-ku.*

"Yilning eng yaxshi o'zbek tili o'qituvchisi" tanlovi haqida

Sportda yosh toifasi, vazn toifasi degan mezonlar bor. "Yosh kitobxon" tanlovida ham yosh e'tiborga olingan. Ustozlar tanlovida-chi? Na yosh, na tajriba, na erishgan yutuqlari e'tiborga olinadi? Xuddi 20-30 yashar navqiron yoshlar bilan 50-60 yoshli bobo yoki buvilar poygaga chiqarilgandek. Iltimos, tanlovlar-da yosh masalasini ham e'tiborga olinsin. Toki yoshi ulug' ustozlar "shu yoshingda senga tanlovda nima bor" degan qarashlarni sezib, o'zlarini ortiqchadek his qilmasin. Moddiy rag'batlantirish borasida muammo bo'lsa, xijolat bo'lmang, o'qituvchi xalqi hech qachon hech kimdan million-million rag'bat kutmagan. Garchi ta'lim fidoyilari bundan ko'prog'i munosib bo'lsa-da, ular bir dasta gul bilan ham xursand bo'lib ketadigan kamtarin zotlardir. Xo'sh, ushbu tanlov til va adabiyot o'qituvchisining qaysi sifatlarini ocha oldi:

1. Badiiy matn tushunishi, his qilishini?
2. Mumtoz yoki zamonaviy she'riyatdan necha bayt yod bilishini?
3. Mumtoz adabiyot, aruz vazni borasidagi bilimlarini?
4. Ijodkorligini?
5. Lug'at boyligini, mustaqil fikrlash yoki voqelikka munosabat bildirishini?
6. Ona tili grammatikasini qay darajada bilishini?

Tanlov shartida ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi uchun dars jarayonida suv va havodek zarur bu sifatlarining biron-tasi ham yo'q. Ijodkorligi esse yozish orqali tekshirildi, deyishingiz mumkin. Respublika bosqichiga chiqqanlar tuman va viloyat bosqichida esse yozganlari yo'q. Xo'sh, ular ijodkorlik bobida kimlarni ortda qoldirib respublika bosqichiga chiqishdi?

Tanlovda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisida zarur bo'lgan sifatlar deyarli ochildi. "Yosh kitobxon" respublika tanlovi qanday o'tyapti? "Eng yaxshi o'zbek tili o'qituvchisi" deya e'tirof etilgan ustoz metodika bilan bir qatorda darsliklar doirasida kamida shunday talablarga javob bera oladigan bo'lishi kerak.

823-qaror haqida

Qarordagi o'qituvchi mehnatini baholash mezonlariga nazar tashlaylik. Unda baholashning 2-ko'rsatkichi sifatida o'quvchilarining olimpiada, tanlovlar, musobaqalar va boshqa tadbirlardagi ishtiroki nazarda tutilgan bo'lib, yuqori ball sifatida 30 ball qo'yilgan. Ya'ni 30 ball o'quvchilari tuman miqyosidagi olimpiada, tanlovlarlardan birida 1-, 2-, 3-o'rinni egallagan ustozlarga qo'yiladi. Endi savol: o'qituvchining bir nafar o'quvchisi bitta tanlovda emas, 2 yoki 3 nafar o'quvchisi 3 ta tanlovda g'olib chiqdi, deylik. O'qituvchining bali 30 balligicha qolaveradi. Ustozning yana ikki mehnati nomukammal qaror va maktab rahbarlari tomonidan "yeb" qo'yilaveradi. Qani adolat?! Bir o'quvchiga fan qonun-qoidalarini o'rgatish uchun o'qituvchi necha yil zahmat chekadi?! O'quvchida ijodkorlik, insho yozish ko'nikmasini shakllantirish ustozdan qancha mehnat, sabr, qancha izlanish talab qiladi? Mehnatni ko'ra oladigan oqko'ngil maktab rahbarlari bo'lsa-ku xo'p-xo'p, ikki bora qilingan mehnatni rag'batlantirishi mumkin. Ammo rahbar umrida o'quvchi tayyorlash zahmatini chekmagan, davlat attestatsiyasida hatto toifasini yangilab kelishga yaramagan, rahbarlik o'qituvchini itoatda tutishdan iborat deb hisoblaydigan muziyurak "inson" bo'lsa-chi? O'qituvchining yillab qilgan mehnati qumga tushgan suvdek singib ketaveradimi?

O'qituvchining har bir mehnati rag'bat topa oladigan tartib qachon joriy qilinarkan? Ustozlar orasida davlat mukofotlari yoki ko'krak nishonlariga munosib ko'riganlari bor. Ular soni ko'p emas. Bunday e'tirof o'qituvchining butun umri davomida qilgan mehnat faoliyati, zahmati evaziga berilgan. Bu rag'batlarni ustoz faqat ayrim bayram kunlariga iymonib ko'ksiga taqadi. 823-qarorda bu jihat nazarda tutilganmi? Yo'q. Nega? Bu rag'bat uzoq yillik mehnat samarasi ekan, iltimos, nomiga bo'lsa-da, 10 foiz ustama bilan rag'batlantirib qo'ying. Davlat aynan rag'bat uchun ajratgan mablag'ning o'z joyiga tushishiga hissa qo'shing.

Joriy yilda respublika miqyosida tanlovlar bo'ldi, ustozlar qatnashdi, yutuqlarga erishdi. Amaldagi 823-qarorda "O'qituvchining tanlovlarda ishtiroki" degan bandning o'zi yo'q. Demak, yana ularga hech qanaqa rag'bat berilmaydi.

Inson har doim ruhiy madadga ehtiyoj sezadi. Masalan, yozganlarim ortidan hech qanday rag'bat topmagach, "bo'ldi, endi hech qachon, hech narsa yozmayman, darsimni o'tib yuraveraman, deya uzil-kesil xulosa qilgandim. Yaqinda "Ma'rifat" gazetasini tahririyatining "Fasning eng yaxshi ijodkori" degan e'tirofi meni yana yozishga undadi.

O'qituvchi faqat yuqoridan keladigan buyruqlar-u topshiriqlarni itoat bilan bajarishga majbur robot yoki soldat emas. U amaliyotchi mutaxassis sifatida, ziyoli shaxs sifatida jamiyatdagi voqealarga, o'z sohasi bilan bog'liq muammolarga munosabat bildiradi oladigan, islohotlarga hissa qo'sha oladigan erkin shaxs bo'lmog'i lozim. Ayniqsa, adabiyot o'qituvchisi ijodkor bo'lmagan ekan, ijodkor o'quvchini tarbiyalay olmaydi. Shunday ekan, ijodkor ustozlarni qo'llab-quvvatlaylik, ularga qanot beraylik. Ijodkor o'qituvchilarning respublika anjumanlari tashkil etilib, taniqli jurnalistlar, ijodkorlar bilan fikrlar almashilsin. Bu maktabda faoliyat olib borgan holda ijodga befarq bo'lmagan barcha ustozlar uchun katta tajriba maktabi bo'ladi.

Gavhar USMONOVA,
Narpay tumanidagi
64-maktab o'qituvchisi

Islohot

Shofirkonda "qizil" maktab qolmadi

Umumta'lim maktablarida ta'lim sifati va samaradorligi darajasi shu muassasani bitirayotgan o'quvchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi, kasb-hunar tanlab, jamiyatda o'z o'rnini topa olishi bilan namoyon bo'ladi.

Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan 2020-yilning 13-iyul sanasidan boshlab maktablar yashil, sariq va qizil toifalarga ajratilgan edi. Bu tasniflashga ko'ra, maktab bitiruvchilarining OTMga kirish ko'rsatkichi 30 foizdan yuqori bo'lgan maktablar – "yashil", 10 foizdan 30 foizga

cha bitiruvchisi OTMga qamrab olingan maktablar – "sariq", bitiruvchilari 10 foizgacha yoki umuman o'qishga kirmagan maktablar "qizil" toifaga ajratiladigan bo'ldi.

2019-2020-o'quv yili natijalariga ko'ra, bizning Shofirkon tumanimizdagi 33-

47- va 50-umumiy o'rta ta'lim maktablari qizil toifaga kirib qolgan edi. Tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan ushbu maktablar reytingini ko'tarish maqsadida maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Avvalo, "qizil" maktablarda mavjud muammolar: kadrlar salohiyati, o'qituvchi va o'quvchilarda mavjud bo'shliqlar o'rganildi. Ushbu muammolarni bartaraf etish va bo'shliqlarni to'ldirishga yo'naltirilgan rejaga muvofiq, "qizil" maktablar "yashil" toifaga kiruvchi tumanidagi eng ilg'or maktablarga birlashtirildi. Jum-

ladan, 33-umumta'lim maktabi 3-IDUMga, 47-umumta'lim maktabi 25- hamda 50-umumta'lim maktabi 55-maktablarga birlashtirildi.

2020-2021-o'quv yili davomida "qizil" toifadagi maktablarda muntazam tashkil qilingan seminarlar, metodik haftaliklar, o'zaro tajriba almashishlar ijobiy natija ko'rsatdi. O'tgan o'quv yilida 33-maktabning 20 foiz, 50-, 40-, 47-maktablarining esa 50 foiz bitiruvchilari OTMlarga qabul qilindi. Hamkorlikdagi tinimsiz mehnat, izlanish va metod almashishlar o'zini oqladi va

mazkur o'quv yilida 33-maktab "sariq", 47- va 50-maktablar esa "qizil" toifadan to'g'ridan-to'g'ri "yashil" toifadagi maktablar safiga kirdi.

Aytish joizki, maktab jamoalarining bu natijalari tuman hokimligi va xalq ta'limi bo'limi tomonidan e'tirof etilib, munosib rag'batlantirildi. Kuchli nazorat, hamkorlikdagi izlanish, e'tibor va rag'bat – muvaffaqiyat garovi ekanligi tajribada yana bir bor o'z isbotini topdi.

Ruslan ATOYEV,
Shofirkon tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri

Oliy ta'lim

Yuridik ta'limda xalqaro hamkorlik

Ta'lim muassasalari o'rtasida xalqaro aloqalarni o'rnatish va mustahkamlash ilm-fan rivoji uchun muhim. Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlikni o'rnatish masalasi o'rta asrlarda birinchi kollej va universitetlar tashkil topgan davrdan beri dolzarb hisoblanadi. Biroq asrlar davomida oliy ta'limni xalqarolashirishning ahamiyati va mazmuni tubdan o'zgardi.

Germaniyada har doim bunga "ilm-fan mohiyatining bir qismi" sifatida qaralgan, ammo hozirgi paytda unga globallashuv jarayoni ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ko'plab Yevropa davlatlarida Ikkinchi jahon urushidan keyin asosiy e'tibor ta'limga ko'proq sarmoya kiritishga qaratilgan. Yuqori salohiyat va bilimga ega bo'lgan kadrlar mam-lakatdan chiqib ketishining(brain drain) oldini olish hamda qaytib kelgan olimlarning integratsiyasini osonlashtirish muhim siyosiy maqsadlardan biri hisoblangan.

O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'limning xalqarolashuvi Toshkent davlat yuridik instituti davriga borib taqaladi. 1991-yildan institutning xalqaro hamkorlik faoliyati shakllanib borgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 28-iyunda qabul qilingan "Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida Toshkent davlat yuridik instituti Toshkent davlat yuridik universiteti sifatida qayta tashkil etildi. TDYU yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash bo'yicha bazaviy oliy ta'lim va ilmiy-metodik muassasa etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan bo'lib, unda TDYUning xalqaro hamkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilangan. Xususan:

- "Ikki tomonlama diplom" berishni nazarda tutuvchi qo'shma ta'lim dasturlari(double degree)ni joriy etish, xorijiy oliy ta'lim muassasalariga doktoranturaga yuborish, shuningdek, yetakchi chet el mutaxassislarini TDYUda o'tkaziladigan o'quv va ilmiy tadbirlarga jalb etish orqali xalqaro hamkorlikni kengaytirish;

- chet el huquqini o'rganish markazlarini tashkil etish maqsadida Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan xorijiy dav-

latlarning oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- milliy va xalqaro olimpiadalarni tashkil etish va o'tkazish hamda xalqaro tanlovlarda(Willem C. Vis Moot Arbitration, Phillip C. Jessup International Law Moot Court Competition va boshqalar) talabalarining tizimli asosda ishtirok etishini ta'minlash;

- TDYUning xalqaro universitetlar assotsiatsiyasiga, shu jumladan Universitetlar buyuk xartiyasi, Universitetlar xalqaro assotsiatsiyasi, Yuridik maktablar xalqaro assotsiatsiyasi, Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi va boshqalarga a'zo bo'lishini ta'minlash.

Ta'kidlab o'tish joizki, TDYU doimiy ravishda ta'lim va fanni tizimli rivojlantirish, yuridik kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirish hamda ularning xalqaro ta'lim maydonidagi raqobatbardoshligini oshirishga intilib kelmoqda. Shu maqsadda xorijiy yetakchi OTMlar hamda ilmiy-tadqiqot markazlari bilan o'zaro manfaatli ta'lim va tadqiqot dasturlari yo'lga qo'yib borilmoqda. Bundan tashqari, taniqli xorijlik professorlar TDYUning ta'lim va ilmiy faoliyatiga keng jalb qilinaypti.

Bugungi kunda TDYU tomonidan xorijiy hamkor universitetlar bilan birgalikda qo'shma ta'lim va akademik almashinuv dasturlarini yo'lga qo'yish, ilmiy loyihalarni amalga oshirish, xalqaro grantlar, konferensiya va tanlovlarda birgalikda ishtirok etish, ilmiy maqolalar, o'quv va ilmiy adabiyotlarni chop etish borasida hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, kelgusida nafaqat oliy ta'lim yo'nalishida, balki yuridik texnikumlar darajasida ham samarali xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish va mustahkamlash hamda shu orqali o'rta maxsus ta'lim bosqichida ham yuridik ta'lim sifatini oshirish maqsad qilingan.

Asal JO'RAYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
"Ma'muriy va moliya huquqi"
kafedrası o'qituvchisi

O'qituvchi yondaftariga

Davlat budjeti tasdiqlanishi respublikamizning barcha fuqarolari uchun muhim jarayon sanaladi. Har yili ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy hamda mudofaa sohalarini rivojlantirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va aholining yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida amalga oshiriladigan ishlar uchun davlat budjeti ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

2022-yilgi davlat budjetidan qanchalik xabardorsiz?



Yaqinda Prezidentimiz tomonidan kelgusi 2022-yil uchun davlat budjeti parametrlari muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazildi.

Kelgusi yil uchun shakllantirilayotgan budget loyihasida asosiy pul ajratmalari ijtimoiy sohalarini rivojlantirishga yo'naltirish ko'zda tutilgan. Xususan, kelgusi yilda ijtimoiy soha sanaladigan ta'lim tizimi hamda sog'liqni saqlash tizimiga budget hisobidan 58 trillion so'm ajratilishi nazarda tutilgan. Taqqoslash uchun mazkur sohalariga 2021-yil uchun jami 34.5 trillion so'm ajratilganligini aytish o'rinnidir.

Undan tashqari, qo'shimcha tarzda davlat budjeti hisobidan 12 trillion so'm miqdorida ehtiyojmand oilalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlarni qo'llab-quvvatlash uchun mablag' ajratilishi belgilanmoqda. Jumladan, markazdan uzoqda joylashgan hududlarda 2 mingga yaqin bolalar bog'chasi tashkil etish, 40 ta yangi maktab qurish, mavjud bo'lgan va ta'mirlalab holdagi 235 ta maktabni qayta ta'mirlash, maktab darsliklarini yangilash kabi loyihalar amalga oshiriladi. Shuningdek, maktablarni zamonaviy kompyuterlar bilan ta'minlash ham rejalashtirilgan.

Yig'ilishda oliy ta'limga qamrov

doirasini oshirishga yana bir bor e'tibor qaratildi. Va buning uchun talabalarni turarjoy bilan ta'minlash masalasini hal etish kerakligi ta'kidlandi. Shu maqsadda davlat-xususiy sherikchiligi asosida talabalar turarjoylarini barpo etishni subsidiya ajratish bilan rag'batlantirish, undan tashqari, yuz mingga yaqin talabalar 50 foiz ijara xarajatlarini qoplab berish nazarda tutilmoqda.

2022-yil uchun davlat budjeti xarajatlarning yana bir asosiy ajratmalari hududlar infratuzilmalarini yaxshilash, yangi uy-joylar barpo etish, shuningdek, ijtimoiy maskanlar qurish, mahallalarni obod qilish chora-tadbirlariga yo'naltirilishi rejalashtirilgan.

Davlat rahbari tomonidan hujjatlar aylanmasini, davlat budjeti ijrosini, umuman olganda, har bir sohaning temir nazoratini tashkil etish borasida topshiriqlar berildi.

Ma'lumot o'rinda aytish mumkinki, 2020-yil davlat budjeti daromadlari 132 938,1 mlrd so'm, 2021-yil uchun 147 202,3 mlrd so'mni, davlat xarajatlari esa mos ravishda 2020-yil uchun 131 104,5 mlrd so'm va 2021-yil uchun 165 879 mlrd so'm miqdorini tashkil etgan edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kelgusi yilda amalga oshiriladigan islohotlarning asosiy diqqat markazida ijtimoiy soha bo'lishi nazarda tutilmoqda. Bu esa mam-lakatimiz aholisining turmush darajasini yaxshilash, ularning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Javlon ZOILBOYEV,
TDYU "Ma'muriy va moliya huquqi"
kafedrası o'qituvchisi

18-noyabr – O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilingan kun

Litsey o'quvchilari 83 bor Vatan bayrog'ini yuqori ko'tarishdi

Bolalikdan yuksak maralarga erishayotgan insonlarga havas qilganman. Ayniqsa, yurtimiz bayrog'ini ko'kka ko'targan yoshlarga. Ana shunday shijoatli yoshlar va ular tahsil olgan Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyi haqida so'zimizni davom ettirmoqchimiz.

Mazkur ta'lim dargohida tahsil olgan o'quvchilar Rossiya, AQSH, Turkiya, Qozog'iston, Koreya, Singapur, Daniya, Indoneziya, Shvetsariya, Vetnam, Ozarboyjon, Gruziya, Tailand, Belarussiya, Eron, Slovakiya, Chexiya, Vengriya, Fransiya, Yaponiya, Portugaliya kabi ko'plab mamlakatlarda o'tkazilgan xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan. O'quvchilar xalqaro olimpiadalarida 2008-yildan boshlab ishtirok etib kelmoqda. Bugunga qadar litsey o'quvchilari 83 ta — 13 ta oltin, 24 ta kumush va 46 ta bronza medallarini o'tlga kiritgan. Bu shunchaki raqamlar emas. Uning ortida juda ko'p mehnat, mashaaqat, g'ayrat, sinchkovlik, izlanish, uyqusiz tunlar bor.

— Bugun bilimi, salohiyati bilan mam-lakatimiz sha'nini munosib himoya qilayotgan yoshlar orasida o'quvchilarimiz borligidan mamnunman, — deydi tibbiyot fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi unvoni sohibi, akademik litsey direktori Ortiqboy Eshonqulov. — G'ururlanadigan jihatim shundaki, litseyimizda tahsil olayotgan o'quvchilar respublikamiz ta'lim tizimi tarixida ilk bor jahon va xalqaro Mendeleyev olimpiadalarida oltin medalni qo'lga kiritishdi.

Akademik litseyga qabul jarayoni dastlab iqtidorli o'quvchilarni taklif etish orqali tashkil etilgan bo'lsa, hozirda qabulni DTM o'z vakolatiga olgan.

Litsey bitiruvchilari va Xalqaro olimpiada g'oliblari yutuqlarining sirlari hamda bugungi kundagi faoliyatiga qiziqdik.

— Ikki nafar akam mana shu dargohni tamomlagan. Ular xalqaro olimpiadalar g'oliblari safida. Ota-onam va akalarning undovi sabab tibbiyot yo'nalishini shahladim. Bu tanlov katta yutuqlarimga debocha bo'ldi, — deydi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 3-bosqich talabasi Mohira Boltayeva. — 2019-yili Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan 53-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasida bronza, 2019-yil Parijda o'tkazilgan 51-Jahon kimyo olimpiadasida kumush medalni qo'lga kiritdim. 2020-yili esa Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandim. Olimpiadaga tayyorlov guruhida o'qiganimda qiynal-dim. Ba'zida "epolmayman", deb tashlab ketmoqchi bo'lganman. Guruhda kuchlilar ko'p edi. Mini olimpiadalarida ko'pincha orqada bo'lardim. Ammo qiyinchiliklarni yengib, sekin-sekin ularga tenglashdim, hatto ba'zilaridan o'tib ketdim. Biz juda ko'p mehnat qilardik. Shu tarzda jamoa bilan ikki yil ishlaganmiz. Bronza meda-



lini olganimda xafa bo'lganman. Chunki laboratoriyadagi o'ta qo'pol xato tufayli balim past chiqqan. Kumush medalni olish jarayonida esa laboratoriya balim O'zbekiston terma jamoasi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich bo'lgan. Lekin bunisi oldingi natijamdan yaxshiroq edi. Taqdir-langanda mehnatingiz besamar ketmagani, bildirilgan ishonchni oqlash, yelkangizdagi mas'uliyatdan xalos bo'lganday sezasiz o'zingizni. Ayniqsa, g'alabangizdan ota-onangiz, ustozlaringiz quvonayotganini ko'rib g'ururlanasiz.

— Xalqaro olimpiadalarida salmoqli yutuqlarga erishgani uchun ham mana shu maskanda o'qishni tanladim, — deydi Xalqaro olimpiadalarida kumush va oltin medal sohibi, Yangi O'zbekiston universiteti 1-bosqich talabasi Sobirjon Omonov. — Bu dargoh menga ko'p narsa berdi. O'z ustimda mukammal ishlashni o'rgandim.

Yutuqlarim faqat meniki emas, jamoaniki. Litseydagi asosiy vaqtimni tayyorgarlikka sarflaganman. Asosan, kunduzlari dars tayyorlardim, kechalari 7-8 soat uyqu bo'lgan. Mehmondorchilig-u, turli xil yig'irlarni to'xtatgandim. Dars qilishdan charchasam, internet orqali o'zim qiziqqan kompaniyalarning texnologiyalari bilan tanishardim. Olimpiadada g'alaba qozonganimda miyam o'chib qolgandi qo'yo. Oldinga qo'ygan maqsadimga erishishning gashti boshqacha bo'larkan. Kelajakdagi maqsadim biokimyo orqali meditsina rivojiga hissa qo'shish.

Tengdoshlarim bilan gaplasha turib ularning ko'zida kelajakka chuqur ishonch ko'rdim. Mana shunday yoshlari bor yurt hech qachon, hech kimdan kam bo'lmaydi, degan xulosaga keldim.

Xolida MUSURMONOVA,
O'zJOKU talabasi

Bayrog'imiz — faxrimiz

Juda qadim emas, yaqin kechmishda bir chol safarga chiqibdi. Yetib borgach o'sha shahardagi bir mehmonxonaga joylashibdi, nimadir kamligi, unga ehtiyoj sezilayotganligi sababli uni do'kondan olib kelgani ko'chaga chiqibdi.

Chet davlatga ilk bor tashrif buyurgan emasm, shaharning go'zal qiyofasiga mahliyo bo'lib, o'zi joylashgan yotoqxonadan uzoqlashib ketganini ham payqamay qolibdi. Kun uzog'i holdan toytan choh zir aylanib mehmonxonani qidiribdi-yu, topolmay anchagina sarson bo'libdi. Erta tongdan to kechgacha shahar "aylangan" otaxon yig'laguday bo'lib yo'lida davom etayotgan bir payt ro'parasidagi ko'rkam binoning yuqorisida, o'z vatani bayrog'iga ko'zi tushib qolibdi. Bunday katta shaharda yaqinlarimni qanday qilib topaman, degan vahimada o'pkasi to'lib turgan ekan, bayrog'imizning payiga tiz cho'kib bo'ng-bo'ng yig'labdi...

Darhaqiqat, begona shaharda, begona xalq orasida chorasiz qolgan vaqtimizda o'z yurtidoshlarimizga duch kelishdek shirin tuyg'u yo'q. chamamda. Shunday katta davlatda yuragimizning bir parchasi bo'lgan ramz: davlatimiz bayrog'ining hilpirab turishi esa umuman o'zgacha gasht bag'ishlaydi insonga. Ana shunday daqiqlarda yuragimiz g'urur va sevinchga to'ladi. Bularning barchasi Vatanga bo'lgan muhabbatning ifodasi...

Yuqorida bayon etilgan voqea ham ayni zamonda sodir bo'lgan hayotiy haqiqat!

Barchamizga ma'lumki, har bir xalqning mustaqilligi, ozodligi, tinchligi va barqarorligi timsoli bu — davlat ramzlari. Yer yuzida 200 dan ortiq davlat bo'lsa, har birining o'z ramzi — bayrog'i bor. Har bir bayroq esa ayri-rang va timsollarga ega. Ular bilan yonma-yon, bir safda balqib turgan bayrog'imiz hech kimdan kam emasligimizni ko'rsatib turadi, albatta.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz g'oliblik bayrog'ini yuksak ko'tardi. Bu bayroq ostida buyuk el birlashdi, barpo etgan ulug' saltanatni dunyo tan oldi. Bu davr Vatan tarixiga zarhal harflar bilan bitildi. Bayroq esa tom ma'noda mamlakat ramzi, ulug'vorlik timsoliga aylandi. Bugungi kunda ham tengdoshlarimiz Jahon shohsupasida davlatimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarib, tomirimizda haqiqiy Amir Temurdek bobolarimiz qoni oqayotganligini isbotlashmoqda!

Lobar DAVRONOVA,
Navbahor tumanidagi
34-maktabning
9-sinf o'quvchisi

Bola edim. Qo'shnimizning uyiga yangi kelin tushdi. Har tong kelinchak ko'cha eshik oldini supurishga chiqsa, uning mastona harakatlari kuzatmoq uchun biz ham qo'limizga supurgi olib, eshik oldini supurishga shoshardik. U eshikdan chiqishi bilan, avval quyosh chiqadigan tomonga qarab biroz turar edi, keyin teskari tomonga qarab supura boshlardi. Bir kuni men ham beixtiyor uning harakatini takrorladim. Quyosh chiqadigan tomonga qaraganimda o'sha vaqtlardagi jamoa xo'jaligi idorasi deb yuritilgan bino tepasidagi bayroqdan boshqa hech nimani ko'rmadim. Bayroq tomonga emas, teskari tomonga qarab supurishga o'rgandim.

Vatanparvar kelinchak ko'rsatgan saboq

...Maktabga chiqdim, qo'limga qalam olgan kunimdan o'sha bayroq atalmish narsa nima ekanligini asta-sekin anglay boshladim. Endi ota hovlimga borsam, har galgi odatimni kaanda qilmay tong pallasi ko'cha eshikka yo'nalmaman. Haliyam idora atalmish o'sha bino peshtoqida bayroq sokin shabadada hilpirab turibdi. Yillar yuzlarimga, sochlaringa o'z ta'sirini ko'rsatib boshladi. Lekin bu bayroq endi ko'zimga go'yoki sehrli olovdek ko'rinadi.

Bir kuni oynayi jahondan Koreyada qattiq shamol bo'layotganini aytishdi. O'shanda bir bino peshtoqidagi O'zbekiston bayrog'i siljib qolganini va o'zbek yigitlari bu bayroqni bino tomiga chiqib to'g'rilayotganlarini ko'rdim. Avval o'tib ketayotgan bir

yigit tomga chiqqan, keyinchalik uning harakatini ko'rib qolgan boshqa o'zbekistonlik yigitlar ham yordamga oshiqishgani aytiladi. Ko'zimga yosh keldi. Bizning o'zbeklar kabi har bir narsani hurmat bilan qabul qiladigan koreys muxbiri mazkur voqea haqida shu qadar o'ziga xos chiroyli tashbehlar bilan gapirdiki, o'zbek bo'lganim uchun shukronalar aytdim.

Har bir millat nafaqat o'z bayrog'iga, balki o'zga millat bayrog'iga ham hurmat bilan qarashi kerak. Chunki bayroq millat va davlat tarixi, erk-u ozodligi ramzidir.

Biz yurt mustaqilligiga erishdik. Yangi ro'zg'or qilib chiqqan oiladek har kuni bir nimamiz kam bo'lib turardi. 1991-yil 18-noyabr. O'zbekiston Respublikasining navbat-

dan tashqari VII sessiyasi o'sha nimadir kamimizni to'ldirdi, bir millat, bir xalq, butun bir yurtning kami to'kis bo'ldi. Shu kuni O'zbekiston atalmish yurtimizning bayrog'i qabul qilindi. Bayroq har bir millatning ko'ksida porlaguvchi bir olmos ekan. Bayrog'imiz BMT binosi oldida qad rostlaguncha xalqimiz boshidan ne-ne kunlar o'tdi. Nimalarni boy bermadik...

Bugun oddiygina o'zbek ayoli sifatida o'sha yoshlikda havas qilgan qo'shni kelinchakning yurt ramziga bo'lgan hurmatini anglab yetgandekman.

Nargiza QO'LDOSHOVA,
Zarafshon shahridagi
10-maktab o'qituvchisi,
maktabning ijodiy-madaniy
masalalar bo'yicha
targ'ibotchisi

Ta'kid

Tashqi ko'rinishga qarab baho bermang!

Bir narsaga juda hayron qolaman. Kishilarning kiyimiga qarab baho berishadi. Odamlar nega unaqa? Juda oddiy kiyingan uchun hech kim meni nazariga ilmayotgandek, gapirsam malol kelib javob qaytaradi. Shukrki, ustozlarimiz unday qilishgani yo'q.

Malaka oshirishga bordim. Darsda juda faol edim. Hammasidan a'lo baho olardim. Fanlarni 5 ga yopmoqchiman desam, ustozlar, "kursingizdagi talabalarga dars o'tib berasiz, darsingiz sifatli chiqsa, olgan baholaringizni inobatga olgan holda bahongiz 5 chiqishi mumkin", dedi. Men har kuni tayyorlanib kursdoshlarimga bir soatdan dars o'tishga kirishdim.

Endi oraliq va nazoratlarga kelganda, boya menga gapirgisi kelmay, nazariga ilmagani "Feruza opa"lab qoldi. Yordam bermaslik qo'limdan kelmadi, barchasini unutib qo'ldan kelganча yordam berdim. Lekin o'sha kiyimimga qarab baho berganlar ham ustozlar edi-ku. Ustoz shunday qilsa, ular bugun va erta ta'lim sohasida qanday ish-lashar ekan-a? Yaxshiyam maktabda forma degan narsa bor ekan, bo'lmasa, qimmatbaho

kiyim kiyganga yaxshi munosabatda, menga o'xshab odmi kiyinganlarga past nazar bilan qaralar ekan-da!

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tmoqchiman, forma bo'lishi shart emas dey-diganlarga, bekorlarni aytib-siz! Forma bo'lishi shart ekan, mana boshimdan o'tdi. Tabaqalanish vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida yagona forma joriy qilinib, amalda tezroq qo'llanishi tarafdorim. Esiz, meni nazariga ilmagani, sizdan qanchalar dilim og'riganini bilsangiz edi. Kiyimimga qarab kutib olib, aqlimga qarab kuzatib qo'ydingiz. Bunday illatlar ta'lim tizimiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishidan xavotirdaman.

Feruza HOSHIMOVA,
Bekobod tumanidagi
48-maktab o'qituvchisi

Fikr

Sinfda 24 o'quvchi edik. O'g'il bolalar juda ham sho'x. Qishda sinfxonamizni maxsus pechkalarga ko'mir yoqib isitardik. Qitmir sinfdoshlarim shumlik qilib ba'zan ko'mirning ustiga pechga sig'maydigan, namiqqan tarashalarni solardi.

O'qituvchi "qarg'ishi"

Bir kuni tanaffusdan kelsak, xona dud bilan qoplangan, sinfxonaga kirib bo'lmasdi. O'qituvchimiz bu ahvolni ko'rib, rosa koyidi. 15 da-qiqa xonaning eshik, derazalarini ochib qo'ydik. Bizdan qattiq ranjigan o'qituvchimiz "Senlar ham o'qituvchi bo'l iloyo", deb "qarg'adi"... Xullas, 11-sinfni ham tamomladik. Sinfdoshlarimning deyarli hammasi o'qishga kirdi.

Oliy o'quv yurtida o'qib yurgan kezlarim yana bir o'qituvchimiz gap orasida aytib qoldi: "Talabalarimni "direktor bo'l" deb, "qarg'ardim". Shu talabalarim hozir direktor bo'lib ishlayapti. Ba'zan telefon qilish-ganda, domla qarg'ishingiz tegdi", deb qo'yishadi...

Bu gaplarni eshitib hayratlandim. To'rt yil o'tib sinfdoshlarim o'qituvchi bo'ldi. Kimdir oliy o'quv yurtida domla bo'lsa, yana bosh-qamiz maktabda o'quvchilariga dars berib kelmoqdamiz. Otaning qarg'ishi yomon bo'ladi, degan gapni eshitgan edim, ammo ustozning qarg'ishi ham otaning qarg'ishidan qolishmas ekan.

Otangiz va ustozingizdan qanday qarg'ish olish o'zingizga havola!

Vazira BOLTAYEVA,
Nukus shahridagi

38-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'qituvchi minbari

Vaqt yeldek shoshib ketmoqda. Olamning biz bilmagan sirlari ham ayonlashib, kishilarning dunyo haqidagi taassurotlari kengayib bormoqda. Ayniqsa, o'quvchi yoshlarning fikrlashi "zambarakning o'qiday". Bugungi kun o'quvchilariga bir asr avvalgi metodlarni qo'llay olmaymiz. Agar zamon bilan hamnafas bo'lmasak, bizni dog'da qoldirib ketishlari hech gap emas. Nega hozirgi yoshlar kattalar eshitgan kuy-qo'shiqlarni toqat bilan tinglay olmaydi. Keling, bir mulohaza qilib ko'ramiz.

Dars retro qo'shiq emas!

Davrimiz yoshlarining imkoniyatlari kengayib borayotir. Shunchaki telefonning tugmachalarini bosish ko'plab muammolarga yechim topib, bilimlariga bilim qo'sha oladi. Shunday ekan har qanday narsaning qadri tezda pasayib borishi turgan gap. Biz televizorda yangi yil arafasida berilishini kutadigan kinolarni bugun yoshlar kutmaydi, chunki istagan filmini istagan vaqti topib ko'radi, hatto sevimli film, qo'shiq degan atamalarining ham rangi o'chib borayotgandek. Zero, biri ketidan biri yangilanib turishi oqibatida tanlov ishtiyoqi ham so'nib boradi. Hamma sevimli narsalardan tezda zerikish kuchayadi. Shuning uchun ham yosh-larda mumtoz yoki retro qo'shiqlarni tinglashga ishtiyoq yo'q. Ular buni vaqtni behuda sarflash deb o'ylashadi. Oldinga, faqat oldinga qaraydilar, salgina hayallash oqibatida nimanidir o'tkazib yuborish, bir soat oldin YouTube tarmog'ida premyera qilingan klipni ko'rmay qolib tengdosh-lari muhokamasiga qo'shilolmay "zamonadan orqada qolishi" mumkin. Bu minglab misollarning birgina ko'rinishi xolos.

Shunday ekan, nega biz hanuzgacha eski metodlardan voz kecha olmayapmiz?! Yoki o'tayotgan darslarimizni ham xuddi eski qo'shiqlarni majburan eshittirish singari singdirishimiz natija beradimi? Bugungi davr pedagogi vaqtdan ham o'zishi, ta'lim-tarbiya berishda yangi usul-larni qo'llab, o'quvchilarning qiziqishini jalb qila olishi zarur. Ular, o'zlari hech qayerdan ololmaydigan, qo'lidagi telefon yoki pla shetdan izlab topolmaydigan bilimlarni o'qituvchi bera olishiga ishonishi kerak.

Nilufar SUYUNOVA,
Pastdarg'om tumanidagi
24-maktab o'qituvchisi

O'quvchilar – haqiqiy dars tahlilchilari

O'qituvchi o'z ustida ishlashida dars tahlili alohida o'rin tutadi. Sababi, maktab jamoasi o'zaro dars tahlillarini amalga oshirishi yutuqlarini ko'rishga va o'z kasbiga nisbatan yanada g'urur hissini tuyishga olib keladi. Shu bilan birga yo'l qo'yayotgan xato va kamchiliklarini bartaraf etishlariga sabab bo'ladi.

Dars jarayonini kuzatish, tahlil qilish, o'qituvchining malakasi oshishi hamda dars sifati ko'tarilishiga olib keladi. Tahlilga kir-gan o'qituvchi yoki boshqa ta'limga aloqa-dor shaxsmi, bundan qat'i nazar, darsni tahlil qilishdan asosiy maqsad — ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'ri tashkil etilganini o'rganish va o'zi uchun yangi metod hamda usullarni kashf etishdan iboratdir. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, o'qituvchi o'ziga nisbatan bir qator tavsiyalar olishi, kamchiliklarini tuza-tishi va yutuqlari haqida bilib olishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, dars o'tgan o'qituvchi ham, tahlil qilgan shaxs ham bu jarayondan manfaatdor.

Biroq dars haqida haqiqiy xulosani darsga kirgan tahlilchi emas, balki bosh-qalar berishiga tajribamda amin bo'ldim. Darslarimizning doimiy kuzatuvchi-lari — bu o'quvchilarimizdir. Menimcha, eng haqqoniy dars tahlilini ular qilishadi. Har bir o'quvchi dars jarayonida qanday salom-lashishimizdan tortib, qo'l, yuz harakatlari, muammoli vaziyatlardan qanday chiqib keta olishimiz, hatto darsni qanday yakunlab, qanday xayrlashishimizgacha sinchkovlik bilan kuzatib, tahlil qilib borishadi. Qolaversa, bular nafaqat o'quvchilar orasida, balki ular-niing oilasida ham tahlil qilinadi. Farzandi-niing qaysi fanni mas'uliyat bilan o'rganib, qaysi bir fandan shunchaki dars tayyorlayot-ganini ko'rgan ota-ona mana shu fan o'qituv-chilariga nisbatan o'zicha xulosa chiqaradi.

Aksariyat boshlang'ich sinf o'quvchilari har kungi dars tafsilotlarini, darslarda nimalarni o'rgangani haqida oila a'zolariga batafsil ga-pirib berishni yoqtiradi. Bolakay uyidagilari-ga maktab haqida gapirar ekan, o'qituvchi "arzimas" deb bilgan narsalarni ham yosh tahlilchi sifatida nazaridan qochirmaydi. Bu esa mana shu fan o'qituvchisining darsi oila-da ham muhokama bo'lishiga olib keladi. Ota-onalar farzandidan: "Bugun qaysi dars-lar bo'ldi?", "Nimalarni o'rganding?", deb so'rashi bilanoq sergak kuzatuvchi darsni o'zicha tahlil qilishga kirishadi. Mashg'ulot-larda qanday ko'rgazmalardan foydalanga-nimizdan tortib, o'zimizni qanday tutgani-miz, hattoki libosning tafsilotlari haqida ham o'z fikrini bildiradi.

Ba'zida internet tarmoqlarida o'qituvchi-larning dars payti nomaqbul so'zlarni ish-latayotgani yoki o'quvchilari oldida mobil telefondan bemalol foydalanayotgani aks et-gan videolavhalarni ko'rib, dilim xira torta-di. Axir biz ziyo tarqatuvchilarmiz. Shunday ekan, darsda hamisha kimligimizni va xat-ti-harakatlarimiz o'quvchilarimizga andoza bo'lishini unutmaylik. Sinfxonadagi 30–35 nafar qorako'z darsimizning eng yaxshi va talabchan tahlilchilari ekanligini esdan chiqarmaylik.

Dilnoza NURMATOVA,
Yashnobod tumanidagi
216-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

Mutaxassis minbari

Konstitutsiya – yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda huquqiy asos

Kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro'yobini yoshlar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu o'rinda fuqarolik jamiyati tushunchasi haqida to'xtalib o'tish joiz. Fuqarolik jamiyati – yuksak fazilatlariga ega bo'lgan insonlar jamiyatidir. Fuqarolik jamiyati shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonunlar ustuvorligi ta'minlanadi, inson huquq va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining mavqeyi yuksak bo'ladi. Mamlakatning har bir fuqarosi fuqarolik institutlari faoliyatida keng ishtirok etadi va ular orqali siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan o'z ehtiyojlarini qondiradi. Fuqarolik jamiyatida davlat va uning organlari faoliyati ustidan fuqarolarning jamoatchilik nazorati o'rnatiladi.

Konstitutsiyamizning 32-moddasida ham fuqarolarning davlat organlarining faoliyatlarini ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanishi ko'rsatib o'tilgan. Shunga muvofiq, 2018-yilning 12-aprel kuni 21 moddadan iborat O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi ham bu masalaning huquqiy asosi hisoblanadi. Qonunga ko'ra fuqarolik jamiyatining to'rtta asosiy institutlari jamoatchilik nazorati subyekti hisoblanadi. Ularga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari kiradi. Davlatning bir qator vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi.

Inson ijtimoiy faolligining asosida uning huquqiy kafolati, erkinligi, jamiyatda demokratik mezonlarning mavjudligi yotadi. Insonlarning birgalikda yashashining kafolati bu jamiyatda, butun dunyoda huquqning, huquqiy madaniyatning mavjudligidir. Ya'ni, insonlarning va ularning kelajagi bo'lgan yoshlarning yashash, o'qish, moddiy va ma'naviy boyliklardan foydalanish kabi huquqlari real qonuniy asosga qo'yilgan jamiyatdagina shaxsning erkin inson sifatida faoliyat ko'rsatishiga imkon yaratiladi. Shunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 24-moddasida yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi ekanligi, 25-moddasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga, 36-moddasida har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli ekanligi, 41-moddasida har kim bilim olish huquqiga ega ekanligi, 42-moddasida har kimga ilmiy-texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanligi belgilab berilgan. Har qanday inson faoliyati – bu uning ongi, fikri, tafakkuri va dunyoqarashining real hayotiy faoliyatga aylanishi samarasidir. Boshqacha qilib aytganda, mustaqil fikrlashning mahsulidir.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan kelajak avlod haqida qayg'urilgan, ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Yoshlarning zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya olishi, vatanparvar bo'lishi, salomatligini mustahkamlashi, o'z kuchi, bilim va salohiyatini namoyon etishi uchun barcha

sharoit yaratilmoqda. Zero, intellektual salohiyati yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunlari, yoshlar ishlari sohasiga oid Prezident farmonlari, qarorlari hamda O'zbekiston yoshlari – 2030 konsepsiyasi yoshlarimizga zamonaviy standartlar asosida ta'lim-tarbiya berish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ko'plab ota-onalar, o'qituvchi va o'quvchilar hamda keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida O'zbekistonda 11 yillik ta'lim qayta tiklandi. Joylardagi o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni qoplash uchun Toshkent viloyatida Chirchiq davlat pedagogika instituti va viloyatlardagi universitetlar huzurida pedagogika institutlari tashkil etildi. Bundan tashqari, 15 ta oliy ta'lim muassasasida tashkil etilgan maxsus sirtqi bo'limlarda o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan 5 mingdan ortiq pedagoglar uchun oliy ma'lumot olish imkoniyati yaratildi. Ta'lim tizimidagi innovatsiya va kreativ yondashuvlar asosida Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug'bek nomlari bilan ataladigan, aniq fanlar chuqur o'qitiladigan maktablar tashkil etildi.

Jahonga ma'lum bo'lib bormoqdaki, hozir O'zbekiston Respublikasida barcha sohada amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar yotadi hamda "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" degan ezgu g'oya asosida amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasini Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdag nutqidan ham bilish mumkin. Jumladan, yangi turdagi ta'lim maskanlari ochildi, xususan, Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Birgina 2020-yilni oladigan bo'lsak, O'zbekistonda matematika fani bo'yicha 56 ta, kimyo-biologiya fani bo'yicha 28 ta, IT sohasida informatika va axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari bo'yicha 14 ta ana shunday maktablar tashkil etildi. Jahon tajribasi o'rganilib, yangi tartib-qoidalar, zamonaviy ta'lim usullari joriy etilmoqda. Jumladan, xususiy maktab ochish uchun litsenziya olish tartibi soddalashtirildi. Nodavlat ta'lim maskanlari davlat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotgani tufayli hozirgi vaqtda ularning soni 195 taga yetdi. Bularning barchasi o'z ijobiy natijasini bermoqda. Buni 2017–2020-yillarda o'quvchilarning nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida 30 ta medalni qo'lga kiritgani misolida ko'rish mumkin. Yoshlarni talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish uchun o'tgan o'quv yilida 339 ta kasb-hunar maktabi, 194 ta kollej va 195 ta texnikum faoliyati yo'lga qo'yildi.

Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish borasida ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017–2021-yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi. So'nggi 5 yilda 64 ta yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etilib, yangi tashkil etilgan OTMLar va ularning filiallari hisobidan yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari soni 141 taga, hududlardagi filiallar 15 taga, xorijiy universitetlar filiallari ham 15 taga yetdi va qabul kvotalari 3 barobar oshirildi.

Shu bilan birga, 2018-2019-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonlari soddalashtirilib, davlat test sinovlari bo'yicha har bir asosiy fandan bo'ladigan test savollari 36 tadan 30 taga tushirildi va test kunlari mamlakat bo'yicha navbatma-navbat 15 kun davomida ochiq muassasalarda shaffof tarzda o'tkaziladigan bo'ldi. Bundan tashqari, 2020-2021-o'quv yilidan boshlab kirish imtihonlariga asosiy fanlardan tashqari barcha ta'lim yo'nalishlariga majburiy bo'lgan O'zbekiston tarixi, matematika va ona tili fanlaridan jami 45 ta test savollari joriy etildi. Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 28 foizga yetkazildi. Yaqin yillarda ushbu ko'rsatkichni 50–60 foizga yetkazish mo'ljallangan.

Yoshlarning ijtimoiy faolligi, ya'ni jamiyat hayotida faol bo'lishi kelajakka ishonch tuyg'usi asosida shakllanadi. Qachonki inson jamiyat barqaror rivojlantirishiga ishonsa, jamiyat qonunlarining ustuvor mavqeyini anglasa, kelajakka qat'iy ishonsagina uning xatti-harakati muayyan ma'no kasb etadi.

Yoshlarda ijtimoiy faollik shakllanishida azaliy, umummilliy, diniy va axloqiy qadriyatlarining ham munosib o'rni bor. Zotan, xalqimizda jamiyat hayotiy hodisalarini anglashda ma'naviy-axloqiy va diniy qadriyatlar yetakchi o'rinni egallab kelgan.

Ijtimoiy faollikning shakllanishida eng muhim huquqiy asos va omil bu O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. Ushbu fundamental hujjat demokratik jamiyatimizning rivojlanishi, fuqarolik jamiyati shakllanishi va takomillashtirishining qonuniy kafolatidir. Chunonchi, Konstitutsiyamizning 33-moddasida fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitalinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan. Shuningdek, Konstitutsiyamizning 32-moddasida fuqarolar

huquqiy-siyosiy faolliklarini jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish yo'li bilan namoyon qilishlari ham ko'zda tutilgan.

Biz demokratik huquqiy davlatda yashayapmiz, kelajakda uning yuqori bosqichi bo'lgan fuqarolik jamiyatini qaror toptirishni maqsad qilib qo'yganmiz. Bu jamiyat fuqarolarning yanada erkin va demokratik faoliyatlarining keng namoyon bo'lishini taqozo etadi. Kelajakimiz bo'lgan yoshlar o'qishda, sportda, ilmiy-texnik ijodda, mehnat ko'nikmalarini hosil qilishda, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishining ahamiyati ortib bormoqda. Buning uchun birinchidan, oilada sog'lom muhit bo'lishi; ikkinchidan, ta'lim muassasalarida sifatli o'qitish, o'quvchining fikrini eshitishni va erkin munozarani yo'lga qo'yish; uchinchidan, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qiluvchi ijtimoiy muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda ijtimoiy faollikning shakllanishi nimalarda, qanday ijtimoiy foydali faoliyatda amalga oshadi? Bular quyidagi omillarda namoyon bo'ladi:

- inson jamiyat mahsuli va a'zosi sifatida jamiyat yaratgan ne'matlarni qadrlashi va o'zi ham yaratishni o'rganishi;
- mehnat qilish uchun yaratilgan shart-sharoitni qadrlay olishi;
- jamiyat bergan bilim, tajriba va tafakkurni anglashi;
- jamiyat a'zolari Vatanning muqaddas tuprog'i, havosi, suvi va moddiy boyliklarini o'zlashtirish va ulardan oqilona foydalanishlari;
- jamiyat ishini o'z ishi kabi bilish, qadrlash va tashabbus ko'rsatishi;
- o'zining va avlodlarining farovon turmushini o'ylab, unga astoydil xizmat qilish.

Bunday olijanob sifatlarga ega bo'lish yoshlardan bilim, yuksak e'tiqod va shijoatni talab etsa, jamiyatdan esa demokratik tamoyillarning barqarorligi, huquqiy asoslarning mustahkamligi va jamiyat a'zolarining fidoyiligi kabi omillarni rivojlantirishni talab etadi.

Shu o'rinda, 2021-yil 6-noyabr kuni yangi muddatga saylangan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishishiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz" nomli nutqida "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon sifatida qabul qilinib, Taraqqiyot strategiyasida 7 ustuvor yo'nalish belgilab berilgan. E'tiborni "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish" nomli to'rtinchi ustuvor yo'nalishga qaratib, barcha sohalar singari ta'lim-tarbiya sohasiga ham katta e'tibor qaratilib, "Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o'qituvchilar, haqiqiy ziyolilar", deb ta'kidlangan.

Alisher XURSANDOV,

Jamoat xavfsizligi universiteti
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida
boshlig'ining o'rinbosari, siyosiy fanlar
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

“Navoyi ensiklopediyasi” ning tarixiy taqdiri



Bugun xalqimiz uchun juda zarur “Navoyi(shoir taxallusini yozishda maqola muallifining talqini saqlandi) ensiklopediyasi” qirq yillik yaratilish(1985–2021) tarixiga ega bo'lib qoldi. Bu kattagina tarixiy davr hisoblanadi. Agar Navoyi qomusi vaqtida yakunlanib, chop etilganida, Markaziy Osiyo mintaqasida adabiy qomusni birinchi bo'lib O'zbekiston yaratishga erishgan bo'lar edi. Navoyi qomusi asoschisi, marhum ustoz Abduqodir Hayitmetovning orzusi ham shu edi. Qomus vaqtida yuzaga chiqqanida, u va uning boshchiligidagi navoyishunos olimlar adabiy qomus yaratish yo'lini birinchi bo'lib bosib o'tgan ijodkorlar bo'lishardi. Ammo bu orada qozoq birodarlarimiz Abay qomusini bizdan keyin boshlab(Navoyi va Abay qomuslari zalvorii barobar bo'lmasa-da), vaqtida tugallab, nashr etishga muvaffaq bo'lishdi. Mana, “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi” ham qisqa muddatlarda yaratilib, munosib tarzda nashr etildi.

“Darhaqiqat, shuni alohida e'tirof etmoqjoizki, – deb yoziladi ushbu nashr haqida “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasining 2015-yil 9-yanvardagi sonida bosilgan maqolada, – “Bobur ensiklopediyasi” nashri mamlakatimizda fuqarolik jamiyati shakllanganining yaqqol namunasi, nodavlat-notijorat tashkilotlar, keng jamoatchilik o'z sa'y-harakati, jonkuyarliligi bilan bunday xayrli ishlarni o'z zimmasiga olayotganining amaliy ifodasidir. Albatta, bu nashrni tayyorlab, chop ettirishda fidoyi ziyolilarimiz, boburshunos olimlar, mutaxassislar beg'araz faollik ko'rsatishdiki, mazkur qomusning yuzaga kelishida ularning xolis, hech qanday manfaat-larsiz, davlatdan ko'mak kutmay qilgan mehnatlari, ayniqsa, tahsinga loyiqdir”. Navoyi ensiklopediyasi esa davlat tashkilotida, davlat mablag'i evaziga yaratilmoqda. Mazkur ish dastlab O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining 10 yillik(1986–1995) ilmiy tadqiqotlar rejasiga kiritilgan bo'lsa, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi shu ish uchun yana 5(2012–2016) yillik grant ajratgan. Bu degani – institutning Navoyi qomusi bilan shug'ullanuvchi xodimlari 15 yillik maosh bilan ta'minlangan. Buxgalteriya hisobi bilan qiziqib ko'rish kerak (agar tayyor qismlari bo'lsa), “Navoyi ensiklopediyasi” materiallarining har bir beti davlatga necha puldan tushar-kin? Afsonaviy raqam chiqsa kerak. Bas shunday ekan, Navoyi ensiklopediyasining yaratilish tarixini bir sarhisob qilish, uning yakunlanishi va dunyo yuzini ko'rishidan tashvishlanishga asos bor.

Qayta qurish va oshkoralik avjiga chiqqan 1985-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasiga yangi Prezident saylandi. U kishi(Po'lat Habibullayev) akademiya ilmiy-tadqiqot institutlarini birma-bir aylanib, ularning ishlari bilan tanishib chiqa boshladi. O'shanda men Til va adabiyot institutining o'zbek

ta hajm – 30 bosma taboq – shuning o'zidayoq Navoyi haqidagi katta bir ensiklopedik material jamlangan edi. Bundan tashqari, “O'zbek adabiyoti tarixi” tadqiqotini O'zbekistondagi eng yuksak saviyali, saralangan 50 dan ortiq mutaxassis-olimlar bilan jips hamkorlikda amalga oshirish A.Hayitmetovda jamoaviy tadqiqot yaratish tajribasini shakllantirgan edi. Shu bilan birga, “Navoyi mukammal asarlar to'plami” nashrining tayyorlangani, Navoyi haqida o'nlab ilmiy to'plamlarning maydonga kelgani, yuzlab navoyishunos olimlar mavjudligi, jahon navoyishunosligi mahsullari yuz ko'rsatayotgani, boshqa o'lkalarda adabiy ensiklopediya yaratish tajribasi takomillashib borayotgani A.Hayitmetov tafakkurida “Navoyi ensiklopediyasi” yaratish g'oyasi va rejasini pishitib yetilgan edi. “Navoyi ensiklopediyasi” yaratish rejasini amaliy izga tushishiga Akademiya yangi Prezidenti P.Habibullayev bilan bo'lgan tarixiy uchrashuv bir turkii bo'ldi, xolos.

P.Habibullayev bilan bo'lgan uchrashuvdan so'ng, juda talabchan va qattiqqo'l ilmiy rahbar A. Hayitmetov Navoyi ensiklopediyasi loyihasi(prospekti)ni tuzish ustida bo'lim xodimlari bilan qattiq ishladi. o'sha davrdagi og'ir va murakkab ishsan vaziyat, jiqqamush turtishuv-talashishlar haqida hamkorlarimiz Suyima opa G'aniyeva va Yoqubjon aka Is'hoqovlar bilan ko'p yillar eslashib yurdik. Xorijiy mamlakatlarda va sobiq Ittifoqdagi respublikalarning adabiy ensiklopediya yaratish tajribasi zudlik bilan ko'zdan kechirildi. A.Hayitmetov tajriba o'rganish uchun bir-ikki respublikaga xizmat safariga borib keldi. “Navoyi ensiklopediyasi” yaratish ishiga barcha navoyishunos olimlar jalb etildi. Ensiklopediya loyihasi to'g'risida A.Hayitmetov Institut Ilmiy kengashining 1986-yil 1-martidagi yig'ilishida (6-bayonnomada) axborot berdi. Loyiha bo'yicha, Navoyi ensiklopediyasi 2 tomdan tashkil topishi, ish 10(1986-1995) yilga rejalashtirilishi, 1-tom 1991-yilda yozib tugallanishi va nashr etilishi, 2-tom 1995-yilda yozib tugallanishi va nashr etilishi ko'zda tutilgan. Rahbariyat tomonidan Navoyi ensiklopediyasi so'zligini 6 oyda tuzib tugallash topshirilgan. Institutning 1987-yil 11-dekabrda hisobotiga ko'ra, 3871 so'z-maqoladan iborat Navoyi ensiklopediyasi so'zligi tuzilgan. (Maqoladagi dalillar bizning xotiramiz va O'zR FA markaziy arxivining 52-fondida saqlanayotgan hisobotlarga muvofiqdir – N.J).

Arxiv ma'lumotlarga binoan, Navoyi qomusini yaratish ishlari jadal va izchil davom etgan. Masalan, o'zbek adabiyoti tarixi bo'limining 1988-yilgi hisobotiga ko'ra, 586 maqola yozib tugatilgan(hajmi 31,25 b.t), 1989-yilgi hisobotiga ko'ra, 248 maqola yozib tugatilgan(hajmi 30,5 b.t). Ilmiy-ijodiy ishlarni ayni shunday qizg'in tus olgan palalarda mazkur satrlar muallifining “O'z

AS”da(1989-yil, 24-mart soni) “Navoyi qomusi yaratilmoqda” sarlavhali maqolasi ham bosilib chiqqan. Unda 1988-yili nashr etilgan “Navoyi ensiklopediyasi” so'zligining mazmun-mundariyasi, undagi asosiy yo'nalishlar, yaratilayotgan qomusning maqsad va vazifalari, ishning qanday borayotganligi k da ma'lumot berilgan. “Navoyi ensiklopediyasi” yaratishning natijalari sifatida ayrim olimlarimiz, masalan, filologiya fanlari doktori, professor Abdurashid Abdug'afurovning yirik maqolalari “O'zbek tili va adabiyoti” jurnalida chop etilgan edi.

Saqlangan ma'lumotlardan ayon bo'lishicha, ensiklopediya ishlarining bo'limdagi asosiy bajaruvchilari 12 nafar ilmiy xodim: A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, S.Erkinov, S.G'aniyeva, Y.Is'hoqov, T.Ahmedov, M.Mirzaahmedova, T.G'afurjonova, N.Jumaxo'ja, A.Habibullayevlar bo'lishgan. Arxiv ma'lumotlarida bajaruvchilar yozib topshirgan maqolalarning nomi, soni va hajmi(bosma taboqlarda) aniq ko'rsatilgan. “Navoyi ensiklopediyasi” asosiy bajaruvchilarining teng yarmi – 6 kishi, ya'ni Y.Is'hoqov, S.G'aniyeva, M.Mirzaahmedova, T.G'afurjonova, A.Habibullayev, N.Jumaxo'ja yaqin yillargacha hayot va faoliyatda edi. Hozir ulardan atigi 4 kishi – Y.Is'hoqov, T.G'afurjonova, A.Habibullayev va N.Jumaxo'ja hayot.

A.Hayitmetov ijodiy faoliyati davrida “Navoyi ensiklopediyasi”ni yaratish bilan bog'liq ilmiy-ijodiy safarlar ham tashkil etilgan. Masalan, S.G'aniyeva Leningraddagi Pushkin uyida 1987-yil 17-27-noyabr kunlari bo'lib, Lermontov va Pushkin ensiklopediyalari bilan yaqindan tanishganini, o'zi uchun hamda “Navoyi ensiklopediyasi”ning boshqa bajaruvchilari uchun ham tajriba to'plaganini qayd etgan. A. Hayitmetov ilmiy rahbarligi davrida “Navoyi ensiklopediyasi” uchun yozilgan ilmiy-ijodiy ishlarni qabul qilish va baholashda ilmiylik, aniqlik, tartiblilik va odillik tamoyillari asosida yondashilgan. Ba'zi bajaruvchilar Fanlar akademiyasining, Til va adabiyot institutining moddiy-ma'naviyat tomonidan Navoyi ensiklopediyasi so'zligini 6 oyda tuzib tugallash topshirilgan. Institutning 1987-yil 11-dekabrda hisobotiga ko'ra, 3871 so'z-maqoladan iborat Navoyi ensiklopediyasi so'zligi tuzilgan. (Maqoladagi dalillar bizning xotiramiz va O'zR FA markaziy arxivining 52-fondida saqlanayotgan hisobotlarga muvofiqdir – N.J).

Bir bayonnomada “Navoyi ensiklopediyasi” uchun jami 3800 ta so'z-maqola jamlangani haqida dalil mavjud. Bu – “So'zlik”da rejalashtirilganidan 71 ta kam, xolos. Xususan, bo'lim boshlig'i, “Navoyi ensiklopediyasi” loyihasi rahbari A.Hayitmetovning o'zi tuzgan va imzolagan 1989-yil 5-iyundagi hisobotda “Navoyi ensiklopediyasi” yakunlanib, Ogahiyning “Ta'viz ul-oshqini” devonini nashrga tayyorlash rejalashtirilganligi qayd etib o'tilgan. Bundan tashqari, 1990–1995-yillar orasidagi bayonnomalarda ham loyiha rahbari A.Hayitmetovning “Navoyi ensiklopediyasi”ni nashr qilish haqidagi

ko'rsatmalari uchraydi. Darvoqe, O'ZR Fanlar akademiyasi Prezidiumining 1991-yil 15-oktabrdagi 21-u 125-qarorida (Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limining taqdimnomasi bo'yicha) “Adabiyot instituti “Navoyi qomusi”ning adabiyotga oid qismini tuzib nashrga topshirdi” deyilgan va “O'zbekiston Davlat matbuot komitetidan 1993-1994-yillarda “Navoyi qomusi”ni nashr etish so'ralsin”, deb qaror qilingan. Bu dalillarning hammasi “Navoyi ensiklopediyasi” A.Hayitmetov faoliyati davridayoq tugallanganligini bildiradi. Lekin nima sababdan bu ish hali ham yakunlanmay, yuzaga chiqmay yotibdi? Nega “Navoyi ensiklopediyasi”ning tayyor, mashinalangan, bo'lim muhokamalaridan o'tkazib protokollashtirilgan qo'lyozmalari, agar A.Hayitmetov 2005-yilda vafot etgan bo'lsa, uning vafotigacha 10 yil va uning vafotidan keyin yana 7 yil unutilgan, tashlab qo'yilgan yoki yo'qotilgan? Nega, chetdan jalb etilgan mutaxassislarni ham hisobga olgan-da, liklab olim bosh qotirgan va qalam tebratgan shunday keng ko'lamlil tadqiqot dom-daraksiz ketgan? Shunisi ham ajablanarliki, nega Bobur ensiklopediyasi jamoatchilik asosida uch yarm yilda yaratilib chop etiladi-yu, Navoyi ensiklopediyasi davlat ta'minotida 40 yilda ham yakunlanmaydi? To'g'ri, Bobur merosi ko'lami Navoyi merosi ko'lami bilan barobar emas. Lekin ensiklopediyalarni yaratishga sarflangan yillar va kuchlarning miqdori ham o'zaro katta farq qiladi. Nazarimda, hayitmetovchasiiga jidd-u jahd, adolat, halollik, fidoyilik, matonat, hamkasabaviy bag'rikenglik bilan boshqarilganida, “Navoyi ensiklopediyasi” allaqachon xalqqa yetib borgan bo'lardi. A.Hayitmetov “Navoyi ensiklopediyasi” so'zligi so'zboshisida ta'kidlagan mana bu yo'riqnomani yana bir marta uqib olsak va unga amal qilsak, maqsadga muvofiq bo'lardi: “Navoyi ensiklopediyasi”ni yaratish g'oyat murakkab ish, – deya saboq beradi ulug' ustoz. – Uni bir-ikki muassasa mutaxassislarigina yarata olmaydi. Bu qutlug' vazifani bajarishga Respublikadagi va undan tashqaridagi barcha mutaxassislarni tortish, mushkul muammolarni jamoaviy jipslikda hal qilish shart”.

Ushbu muammo mazkur satrlar muallifining “Tafakkur” jurnalining 2001-yil 2-sonida e'lon qilingan “Abadiy daho” sarlavhali maqolasida ham ko'tarilgan. Unda taklif etilganki: “...Ezgu ishning kechi yo'q, tayyorlangan materiallarni milliy istiqloq ruhi bilan yangilab, yakunlab, xalqqa yetkazish vaqti keldi. Hatto, boshqa ayrim tadqiqotlar va mayda-chuyda tadqiqotnamo ishlardan mablag' hamda qog'ozni iqtisod qilib bo'lsa ham, mana shunday ulkan ishlarga yo'l ochish kerak...”. Shundan keyin ham o'n yil o'tib, davlatning hotamtoyligini qarang, bitgan ishga yana besh yillik fundamental tadqiqotlar granti va 2 marta nashrga tayyorlash uchun amaliy grant ajratgan.

Men A.Hayitmetov tashabbuskorligida boshlangan va yaratilgan “Navoyi ensiklopediyasi” materiallarini yuzaga chiqarish, yakunlash va nashr etish masalalarini ko'tarib 2 marta O'zRFA sobiq Prezidenti Shavkat Ismoilovich Solihovga rasmiy murojaat qildim. Birinchi – 2014-yil 4-sentabr kuni qilgan murojaatim uzoq muddat javobsiz qoldi. Nihoyat, o'z harakatim bilan javobni oldim. Javob Til va adabiyot instituti rahbariyati tomonidan tayyorlangan bo'lib, unda “Navoyi ensiklopediyasi”ning haqiqiy ahvoli haqida to'g'ri ma'lumot berilmagan. A.Hayitmetov davrida yaratilgan materiallar esa mafkuraviy jihatdan qoralangan edi. Ammo bu materiallarning qayerdaligi ham ma'lum emasdi. Ikkinchi marta – 2015-yil 16-fevralda murojaat qilganimdan so'ng, Akademiya sobiq Prezidentining maxsus buyrug'i bilan 10 kishidan iborat nufuzli komissiya tuzilgan. Komissiya a'zolari quyidagi kishilar: B.Abdusalimov, O'zRFA vitse-prezidenti, komissiya raisi, A.Qayumov, O'zRFA akademigi, B.Nazarov, O'zRFA akademigi, N.Mahmudov, O'zRFA Til va adabiyot instituti direktori, T.Mirzayev, O'zRFA Til va adabiyot instituti yetakchi ilmiy xodimi, S.Hasanov, O'zRFA Davlat Adabiyot muzeyi direktori, S.G'aniyeva, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti professori, A.Habibullayev, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti dotsenti, N.To'xlijev, Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti professori, H.Yadgarov, O'zRFA yuristi. Afsuski, ushbu komissiya ham haqiqiy ishlamadi. Men Til va adabiyot institutidagi yaqin hamkasblarim, bir necha komissiya a'zolari bilan bir oy davomida telefon orqali xabarlashib, haqiqiy ahvolini bilib turdim. Komissiya a'zolarining asosiy qismi, biz ishongan eng ulug' navoyishunos olimlar ham institutga umuman borishmagan, mening murojaatim bilan tanishib chiqishmagan, “Navoyi ensiklopediyasi”ning haqiqiy ahvoli bilan qiziqishmagan. Komissiya xulosasini institutdagi uddaburonlarning o'zlari yumalaaq-yostiqliqlashgan va barcha a'zolariga qo'l qo'ydirib olishgan. Shuning uchun komissiya xulosasi soxta, chala, biryozlama, yana ilgari yaratilgan “Navoyi ensiklopediyasi” materiallarini mafkuraviy jihatdan qoralashdan iborat bo'lgan, xolos. Men bu xulosadan mutlaqo qanoatlanmadim. Keyingi besh yillik grant asosida yaratilayotgan “Navoyi ensiklopediyasi” qanday ahvolda ekanligi esa hanuz noma'lum. Ishning necha foizi bajarilgan, nechta maqola tayyorlangan, aniq bajaruvchilar kim? Bu haqda gap yo'q.

Lekin bizning murojaatlarimiz butkul natijasiz qolmadi. Jumladan, oldingi yaratuvchilardan 18 ta papkada mashinalangan materiallar mavjudligi e'tirof etilgan. Demak, A.Hayitmetov ijodiy

jamoasi mahsuloti, merosi pinhonlikdan yuzaga chiqdi. Shuning o'zi ham natija. U o'zlashtirib yuborilish xavfi ostida turgan edi. Birinchi murojaatimdan keyin mening 33 ta maqolam borligi haqida ma'lumot berilgan bo'lsa, 2-murojaatimdan so'ng 79 ta maqolam tayyor va ular ayrim tahrirlar bilan “Navoyi ensiklopediyasi” tarkibida nashr etilishi haqida ma'lumot berildi. Komissiya xulosasiga har bir papkadagi materiallar haqida ixcham taqrizlar ilova qilingan. Taqrizlarning mazmunidan ishning katta qismi yaroqliligi ko'rinib turibdi.

Avvalo, shuni anglash kerakki, o'z davrining yetuk navoyishunoslari tuzgan “Navoyi qomusi” qaytadan yoza-digan darajada nochor bo'lmagan. Ular siyosiy, mafkuraviy jihatdan mustaqillik ruhi bilan yongan, millatparvar ziyolilar edilar. Milliy o'zlikni anglash va mafkuraviy yangilanishlar adabiyotshunosligimizda o'tgan asrning 80-yillaridan boshlangan. Tasavvuf tadqiqi va targ'ibiga keng yo'l ochilgan. Buni o'sha “Navoyi qomusi” yaratilgan bo'limning ishlaridayoq ko'rishimiz mumkin. Jumladan, zabardast navoyishunos olim, Beruniy mukofoti sohibi Y.Is'hoqovning 1983-yilda chop etilgan “Navoyi poetikasi” tadqiqotida navoiyona ishq konseptsiyasi batamom yangicha baholangan. 1980-yillarda bo'linda “Tasavvuf va o'zbek adabiyoti” mavzusida 3 yillik tadqiqot rejalashtirilgan. Ish uch qism-lar iborat bo'lishi, Navoiygacha bo'lgan qismini I.Haqqulov, Naqshbandiya va o'zbek adabiyoti qismini Y.Is'hoqov, Qalandariylik va o'zbek adabiyotini S.Rafiddinov yozishi kerak edi. Y.Is'hoqov qalamiga mansub kitob chop etilgan. Qolgan ikki qismining taqdiri esa mualliflarning sa'y-harakatlariga bog'liq bo'lib qolgan. O'sha yillari chop etilgan boshqa yuzlab maqola va tadqiqotlar-da hurfkrlik epkinlari yuz ko'rsatgan. Diniy-tasavvufiy asarlarni nashr etish va ommalashtirishga 1985-yillardan jiddiy kirishilgan. Bu sohada “Adabiyot va san'at” nashriyoti “O'zbek adabiyoti bo'stoni” nomi bilan yangi ruhn ochgan. Uning “Mangu buloqlar” deb nomlangan 1-kitobidan Burhoniddin Rabg'uziyning diniy asari “Qisasi Rabg'uziy”ning katta qismi ham o'rin olgan bo'lib, u 1986-yil 100 000 nusxada nashr etilgan. Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar” kitobi xuddi shu ruknda 1990-yil 300 000 nusxada chop etilgan. Agar kitobning 1989-yil 25-oktabrda bosmaxonaga berilganini inobatga olsak, demak, “Hikmatlar” bir necha yil oldinroq nashrga tayyor bo'lgan. Ilmiy tayyorgarligining yetukligi, bilim zaxirasining boyligi, yozma uslubining pishib yetilganligi jihatlaridan ham katta avlod navoyishunoslarining merosi kamsitishga loyiq emas. Hozir bunday ulkan olimlar pleyadasi mamlakatda yo'q. Ular olamdan o'tib, maydon bo'shab, muqaddas mulklari ayrim nopok shaxslar tasarrufida qoldi. Albatta, har qanday ish uchun tahrir zarur.

Tahrir tadqiqotni yanada sayqal toptiradi. Biroq tahrir qaytadan yozish yoki tayyor tadqiqotni o'zlashtirish degani emas. Huquqiy jihatdan qaraganda, tugallab topshirilgan tadqiqot davlat tasarrufiga o'tgan intellektual mulk hisoblanadi. Uni harakatdan to'xtatish, berkitish, o'zboshimchalik bilan o'zgartirish yoxud mualliflik huquqini o'zlashtirish davlat mulkiga xiyonat bo'lib, buning uchun javobgarlik belgilangan.

Men professor A.Hayitmetov davrida yaratilgan “Navoyi ensiklopediyasi”ning bajaruvchilaridan biri va bu intellektual mulkning vorislaridan biri sifatida quyidagilarni taklif etaman: Birinchidan, “Navoyi ensiklopediyasi” oldingi va hozirgi materiallarini umumlashtirib, notugal qismlarini tugallab, mafkuraviy va ilmiy jihatdan tahrir etadigan tezkor tahrir jamoasini tuzish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, “Navoyi ensiklopediyasi”ni yakunlash va chop etish uchun Respublika va undan tashqaridagi ilmiy-adabiy salohiyat kuchlarini birlashtirish zarur. Uchinchidan, hozirgi jamoadagi ba'zi xodimlar yetarli ilmiy tajriba va saviyaga ega emas. Jamoa tarkibini yuqori saviyali, mahsuldor olimlar hisobiga yangilash kutilgan natijani berishi, shubhasiz. To'rtinchidan, 2016-yili Alisher Navoyi tavalludiga 575 yil to'ldi. Ulug' va fidoyi navoyishunos olim A.Hayitmetov tavallud topganiga 90 yil to'ldi. Shu yili vafot etganlariga 10 yil to'ldi. Olim “Navoyi ensiklopediyasi”ni Navoyi tavalludining 550 yilligiga nashr etishni mo'ljallagan edi, bu armon bo'lib qoldi. “Navoyi ensiklopediyasi”ni mana shu qutlug' uch sanaga tuhfa sifatida tayyorlab nashr etish maqsadga muvofiq edi. Afsuski, bu imkoniyat ham boy berildi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining o'sha davrdagi raisi Muhammad Ali bir kuni meni uyushma a'zosi sifatida chaqirib, Navoyi qomusining hozirgi holati bilan yuqori tashkilotlar qiziqayotganligi, uning nashri uchun zarur bo'lsa, yordam bermoqchiliklari haqida gapirib, Navoyi qomusining hozirgi ahvoli haqida bir ma'lumotnoma tayyorlab berishimni so'radi. Men ushbu ma'lumotnomani 2015-yil 16-aprel kuni tayyorlab topshirdim. M.Ali meni yana bir maslahatga chaqirganida, yuqori tashkilotlar bilan ma'lumotnoma asosida kelishganini, Til va adabiyot instituti direktori N.Mahmudovni chaqirib, “Navoyi ensiklopediyasi” tayyorligiga qarab, uning nashri uchun yordam berilishini taklif etganini aytdi. N.Mahmudov esa ish hali tayyor emas, 2016-yilda grant yakunlanishini, o'shanda qomus nashri haqida o'ylash mumkinligini aytdi. Shu bilan “Navoyi ensiklopediyasi” nashri yana noma'lum muddatga orqaga surilib ketdi. Afsuski, Alisher Navoyi tavalludining 580 yilligi tadbirlari rejasida ham “Navoyi ensiklopediyasi” nashridan darak yo'q.

Beshinchidan, “Navoyi ensiklopediyasi” nashrida professor A.Hayitmetovni g'oya muallifi sifatida alohida ko'rsatish allomaning xizmatlariga loyiq ish bo'lar edi.

Nusratullo JUMAXO'JA, filologiya fanlari doktori, Alisher Navoyi nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori

Mulohaza

“Bolani rus maktabga berish kerak!..”

Qo'shni amakim o'g'lini rus maktabiga o'tkazganini aytib: “O'zbek maktablarining aksariyati o'z mavqeyini saqlab qolgan. Qolganlari esa juda ayanchli ahvolda. Ayrim o'qituvchilar yetarli tajribaga ega emas. O'tgan yili kichkina qizimga yoshgina bir qiz ustozlik qilgandi. Tuppa-tuzuk o'qib turgan qizim o'zlashtirishda orqada qoldi. Uyda “Oyi, bu mavzuni yaxshi tushunmadim. Aka, matematikadan yordam bering”, deyidigan bo'ldi. Yordam berish, uyda shug'ullanishdan qochmaymiz. Bu — burchimiz. Ammo maktab va o'qituvchi bolaning shakllanishida alohida o'rin tutadi. Hattoki, hali uchinchi sinfga o'tmagan qizim bir safar “Dada, yangi ustozimning darslariga tushunmayapman”, deya yozg'irdi. Ha, mayli hali yosh ekan, deya boshqa sinfga o'tkazdim. Biroq o'zgarish bo'lmadi. Oddiy maktab bo'lsa ham mayli, IDUM-a.

Bir safar uyuq vazifalarini o'rgatib, daftarini varaqlab ko'rib yoqa ushladim. Bajargan misol va mashqlariga katta-katta qilib besh qo'yilgan. Hayron qoldim, rosti. Bajargan sinf ishi vazifalariga qararasam, ko'p joylarida xato bor, hatto ba'zi masalalar oxirigacha ishlanmagan. Shunda ham bahosi besh. To'g'ri, baho nisbiy, ammo o'qituvchi o'quvchining xatosini to'g'irlashi kerak emasmi? Axir qo'yilayotgan baho, o'n birinchi sinfni bitirayotganda beriladigan shahodatnoma yoki attestat o'quv rejadagi dasturda belgilangan vazifalarning “a”lo, “yaxshi”, “qoniqarli” darajada bajarilganiga guvohlik tarzida berilmaydimi? O'qituvchi pinakni buzmay yolg'on guvohlik berib tursa, qolganlardan nima kutamiz? Demak, o'qituvchisi vazifalarni tekshirmay ham baho qo'yib beraveradi. Ertasi kuni unga uchrashdim. Aytishicha, qizim sinfning eng a'lochi o'quvchilaridan ekan. Bo'lgan voqeani direktorga aytсам, oliy ta'limni yaqinda bitirgan, tajribasi yetarli emas, deydi. Ensam qotdi. Axiyri, bir qarorga kelib, qizimni opalari o'qigan rus maktabga o'tkazdim. Biroq u yerda ham yosh o'qituvchiga tushganiga ko'nglim to'lmagandi. Oradan besh oy o'tdi. O'zlashtirishi yana yaxshilandi. Bolani rus maktabga berish kerak ekan”, deydi. So'zim avvalida ushbu voqeani bekorga keltirmadim. Ziyolilarimizning biridan eshitganim — bu mulohazalar tinchlik bermay, o'ylantirib yurgandi.

O'tgan yilning ikkinchi yarmidan buyon Toshkent shahridagi maktablarning birida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchiman. Bir safar maktab direktori o'zaro muloqot chog'i: “Murod, universitetni bitirib chiqayotgan ko'pchilik talabada na amaliy tajriba bor, na bilim. Ishonsangiz, bir yilning o'zida bir fandan besh-olti martagacha o'qituvchi almashirishga to'g'ri kelyapti. Ba'zilar hatto muomalani bilmaydi. To'rt yil nima qilgan, hayronman. Biz o'qigan vaqtlar tizim umuman boshqacha edi. Maktab reytingda orqada qolsa, ko'p hollarda baho direktorga nisbatan beriladi. Ammo direktor sifatli kadrlar bilan ta'minlanmasa, maktabning reytingini qanday ushlab qolsin? Sifatli kadrlarim yo'q deb yozg'irsam, birgina mening maktabimda emas, deyarli barcha maktabda shu muammo bor ekan. O'qituvchilarning obro'si tushib, repetitorning bozori chaqqon bo'lishiga ham ko'p hollarda o'zimiz aybdormiz”, deydi. O'zim guvoh bo'lgan voqealarga asoslanib: “Ta'lim tizimi va kadrlar xususida gapirdik. Mamlakatimizdagi rus maktablarining saviyasi va ta'lim berish sifati o'zbek maktablarinikiqaraganda baland. Buning sababi nimada?

Rusiya maktab o'qituvchilariga ko'proq maosh to'lanadimi?”, deya so'zim avvalida keltirgan voqealarni birma-bir so'zlab berdim. “Yo'q, rus maktablarida ham oylik deyarli biznikidek. Ammo ularning o'qitish tizimi, saviyasi ancha baland. Chunki rus maktablar shahar yoki tuman markazida joylashgan bo'ladi, ta'lim tizimida Rossiyada shakllangan va dunyoning keng hududlarida amalda bo'lgan an'anasi mavjud, shuningdek, rus maktabi o'qituvchilari rus maktabni bitirgan, shuning uchun umumiy saviyasi yaxshi. Shuning uchun, milliy ziyolilarning ham bolalari rus maktabga boradi”, deydi.

Haqiqatan ham, maktab direktorining mulohazalarida jon bor. Milliy ta'lim tizimi haqida gap ketsa, ko'pincha olmon yoki Yaponiya ta'lim tizimini misol qilamiz. Haqiqatan ham, bu ikki diyorda ta'lim tizimi juda puxtalik bilan ishlab chiqilgan. Bilamizki, yaponlar ikkinchi jahon urushi vayronaligidan, milliy-ommaviy tanazzul davridan qisqa muddatda chiqib ketishga muvaffaq bo'ldi. Bunga ta'lim falsafasining bosh g'oyasida o'qituvchiga imperatorning obro'si, bosh vazirning oyligi, diplomatning daxlsizligini berish amaliyoti yotgani sabab bo'lgan, deyishadi. Shuningdek, ular o'qituvchiga erkin ijodkor sifatida qaraladi.

Qolaversa, ular ham maktabda, ham repetitor o'qishga ehtiyoj yo'q. Yaqinda Vengriya o'qiyotgan do'stimdan Vengriya ta'lim tizimi va o'qituvchilar saviyasi haqida so'radim. Aytishicha, oliy ta'limni bitirayotgan talabalar ham amaliy, ham nazariy imtihon topshiradi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasasining mavqeyi kadrlariga qarab baholanadi. Kadrlarning ishga joylashishi, malaka oshirishi va umumiy saviyasini nazorat qilish ham universitet zimmasiga yuklatilgan ekan. Bu xususda churq etmasdan hukmni o'quvchining muhokamasiga tashlab o'taman.

O'zni keldi, so'zim oxirida Xalq ta'limi vazirligiga bir necha savol bilan murojaat qilmoqchiman:

Birinchi, nega oliy ta'limni bitirib, biron-bir maktabga ishga joylashayotgan kadrlar saviyasi tekshirilmaydi?

Ikkinchi, bakalavr bosqichining uchinchi va to'rtinchi kurs talabalarining amaliyot o'tash jarayonida qat'iy nazorat yo'q?

Uchinchi, hozir o'zbek maktablarining saviyasini Yaponiya va Germaniya maktablariga emas, avval o'zimizdagi rus maktablari darajasiga ko'tarishni o'ylash vaqti yetmadimi?

Murodjon RAHMATOV

Sharof Rashidov o'zbek xalqi baxtiga dunyoga kelgan elning ardoqli farzandi edi. Zilziladan so'nggi azim Toshkentning yangi qiyofasi Sharof Rashidovga tiklangan birinchi ulug'vor haykal edi. Shahar oltin kamari — metropoliteni esa Sharof Rashidovga qo'yilgan ikkinchi muazzam haykal bo'ldi.

Ushbu zalvorli me'moriy obidalardan tashqari Sharof Rashidovning doimiy diqqat markazidagi masala adabiyot va xalq kitobxonligi edi. Qalami o'tkir adib, xalqimiz yaratuvchan irodasining porloq qahramonlari timsolini “Bo'rondan kuchli” romanida yaratib qo'ydi. U umumbashariy mavzu — xalqaro do'stlik va hamjihatlikning buyuk tashkilotchisi edi. Uning xatti-harakati va tashabbusi bilan Osiyo va Afrika xalqlari yozuvchilarining doimiy forumlari SSSR miqyosida o'tkazilib turdi. Uning “Kashmir qo'shig'i” asari hind xalqi va o'zbek xalqi do'stligiga qo'yilgan haqiqiy haykal bo'ldi. O'zbek xalqi undagi mayin qo'shiqlarni hanuz eslab yuradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev siyosida men yangi zamon Sharof Rashidovini ko'ryapman. U oltin kamarning Mashinasozlikdan Qo'lyo'zga, Olmazordan Sergeliga yangi halqalarini qurdirib ishga soldi.

Shavkat Mirziyoyev Sharof Rashidov hatto orzu qilishga botinmaydigan ishini bajardi. Alisher Navoiy haykali qarshisiga yana yigirma olti o'zbek mumtoz va zamonaviy adib, shoirlar haykallarini o'rnatib haqiqiy O'zbekiston adiblari xiyobonini yaratdi.

Sharof Rashidov davrida yuzlab adib va shoirlar uy-joy va yengil mashinalari bo'ldilar. Shavkat Mirziyoyev bu ishini nafaqat poytaxt Toshkentda, balki viloyatlarda ham amalga oshirishga bosh-qosh bo'lmoqda.

Sharof Rashidov o'zbek adabiyoti, san'ati, madaniyatini jahonga ko'z-k'z qildirish uchun o'sha paytdagi tor imkoniyatlarni pahlavonlarcha zakovat bilan kengayitirdi. Shavkat Mirziyoyevning ma'naviyat sohasidagi tasavvuri va niyati juda yorug' va undanda keng: u O'zbekistonda tarixdagi ikki Uyg'onish davrini ortda qoldirib, uchinchi yuzga chiqarish tashabbuskoridir. Bu qutlug' oljanob niyatlarimiz biz adib-shoir, dramaturg, olim, musavvir hamda ma'rifiy jabhadagi ulamolalarimizga muborak bo'lsin!

Buning uchun barcha ziyolilar, ijodkorlar uyg'onishimiz va omad tulporiga minib g'ayrat qilishini o'ynatmoqimiz kerak. Istiqbol davri buyuk olamshumul yutuqlar zamon bo'lgani rost: mashina zavodlari va osmonopar binolarimiz ansambllari, bugungi “siti”lar ushbu fikrimiz dalilidir.

Biroq shu davrda o'rta maktab, oliy maktab va fandagi turg'unlik hamda ziyolilarda shakllangan loqaydlik pandemiyasi amaliyotini ham unutmastigimiz kerak. Koronavirus pandemiyasi mavsumidir. Balki bundan biror yilda qutulamiz. Ammo loqaydlik, g'aflet pandemiyasidan millatimiz uyg'onishi qiyin kechmoqda. Chunki uyg'otuvchi kuch — adib va olimlarimizning ko'zlari hali tegishli uchun olmadi. Prezidentimizning shunchalik uyg'onish haqidagi umumbashariy qo'ng'iroqlari bizni sergaklantiradi oldi desam rost gapni aytgan bo'laman.

Men, muzofotda yashayotgan 80 yashar chol keyingi ikki yilda 14 ta kitob nashr ettirdim. Bular: Alisher Navoiy “Xamsa”sining besh dostoni (G'afur G'ulom nashriyoti, 2020), “Xamsa”ning mukammal nasriy bayoni (“Navro'z” nashriyoti, 2019), Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”sining hozirgi tildagi bayoni 4 marotaba (“O'zbekiston”, “Yangi kitob”, “O'qituvchi” nashriyotlari), Alisher Navoiy “Lisotut-tayr” asarining asli (G'afur G'ulom nashriyoti, 2019) kirill hamda lotin yozuvlarida hozirgi tildagi nasriy bayoni (“Tafakkur” nashriyoti), o'z muallifligimdagi “She'r san'atlari” (“Sharq” nashriyoti), “Mumtoz asarlar lug'ati” (“Akademnashr” nashriyoti). Yana bir yangi kitobim bosilishi kutilmoqda. Nomi: “Yonayotgan mumtoz so'z”.

Hali dunyo yuzini ko'rmagan kitobim nomidan o'z fikrlarimni bayon etmoqchiman.

Adabiyotshunos olimlarimiz, jumladan, navoiyshunoslarimiz ham aittidan kitob o'qimay qo'yadilar, chamamda. Chunki, avvalo, ular uyqudalar. Loqaydlik pandemiyasiga muhtalodirlar, shekilli.

Alisher Navoiy kulliyotlarining 20 jildlik “Mukammal asarlar to'plami” va 10 jildlik “To'la asarlar to'plami” matnshunos ko'zi bilan qaralganda: Alisher Navoiy shaxsi va dahosiga nisbatan hurmatsizlik kina emas, balki haqorat bo'lib chiqdi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti va qo'lyozmalar institutining yetakchi navoiyshunoslari ilmiy kotiblar sifatida har jildda minglab xatolarga yo'l qo'yadilar.

Ular o'zlari tayyorlagan va nashr ettirgan kitoblari korrekturasini ham o'qimadilar, chiqqandan keyin ham ularga qayrilib boqmadilar.

Har ikki kulliyotda: Navoiy shaxsi, e'tiqodi, so'zlar soxtalashtirildi, ayovsiz buzildi. U kitoblarda Navoiy bo'yniga ochiq va yashirin zolimligini qo'yadilar:

*Navoiy, qilmag'il bas zulm birla durfishontig'kim,
Maoniy bikrig'a zavar hadising gavharidindur.
(Mukammal asarlar to'plami 2-jild, 142-bet).*

Sharof Rashidov diqqat-markazidagi masala yoki loqaydlik pandemiyasi

*Ishq aro rashk ayladi bu jismi vayronim fido,
Hajr xud qildi, nekim bedodi pinhonim fido.
(Mukammal asarlar to'plami 5-jild, 465-bet).*

"Bedodi pinhonim" yashirin zulmim demakdir.
Xudo va Muhammad alayhissalomni haqorat qildilar.
Ollohni jinnilar safiga tirkab, Majnun deb e'lon qildilar:

*Navo'iy, ahli jumun zumrasig'a kirdi ilohi,
Chun aylading ani Majnun, o'zungni qil anga Laylo.
(Mukammal asarlar to'plami. 2-jild, 10-bet).
Ollohni makkor deb haqorat qildilar:*

*Ani qildi Haq makri aylab sitez,
Siyosat qilichi bila rez-rez.
(Mukammal asarlar to'plami, "Tarixi mulki Ajam",
To'la asarlar to'plami 8-jild, 606-bet).
Muhammad alayhissalomni Ollohning o'g'li deb e'lon
qildilar:*

*Qaysi til birla yo bani ulloh,
Seni ta'rif etay mene gumroh.
(Mukammal asarlar to'plami 14-jild, 235-bet).*

"Bani ulloh" Ollohning o'g'li demakdir.
Me'roj kechasini urush oqshomiga chiqardilar:

*Chun shomi urush, qaytting bot,
Subh etdi g'ussadin yaqo chok.
(Mukammal asarlar to'plami 3-jild, 262-bet).*

Amir Temurga (1999, 15-tom, 226-beti 2011, 10-jild, 630-bet) zolim va bosqinchilik la'nat tamg'asini bosdilar.
Islom shariati ilmi – fiqh ilmini jin ilmi deb e'lon qildilar:

*Olam aro ilm, ilmi dindur,
Jin ilmi fiqh erur, yaqindur.
(To'la asarlar to'plami, 2011, 7-jild 36-bet).*

Namoz-niyozi qilgan odam ko'r bo'ladi. Tasavvuf sulukiga kirganlar ko'r bo'ladi deb tahdid qildilar:

*Torqucha ganjinayi asrorliq,
Ko'r qilibon soliki atvorliq.
(To'la asarlar to'plami, 2011, 7-jild 36-bet).*

*Bo'lmadi ul pardada chun kashfi roz,
Ko'r qilib izhori sujud-u niyoz. (O'sha kitob, 65-bet).*

Har bir kitobda yuzlab nuqsonlar sodir etdilar; minglab so'zlarni ikki, uch, besh, olti shakllarda yozib chalasavodlikni haddi a'losiga yetkazdilar (har ikki kulliyotda tobe so'zi 8 shaklda yozilgan!).

1. To'bi:
*Ul qadi To'bidin ortuq, yuzi, Rizvondin jamil,
Kim, berur jon la'li har kim bo'lsa ko'zidin qatil.
(3-jild, 659-bet).*

2. Tubo:
*Ne hurekim, yurub qilg'och takallum.
Uyotdin tuboyu kavsar bo'lub gum. (6-jild, 558-bet)*

3. Tubo:
*....ba'ziga dubdurlarki Tubo, daraxt soyasida javob
bergumizdur (10-jild, 419-bet).*

3. To'bi:
*Qaysi habib ulki falak xokidur
Sidrau to'bi-xasu xoshokidur. (6-jild, 181-bet).*

4. To'biy:
*Qaysi to'biy jilvasi sarvi xiromoningcha bor?
Qaysi kavsarning zuloli obi hayvoningcha bor?
(2-jild, 150-bet).*

5. Tubiy:
*Aningkim, qadin tubiy etdi Xudoy.
Behisht etdi g'ulzori ruxsorini. (3-jild, 639-bet).*

6. Tubi:
*Nozanin qadding tiriklik gulshanini naxlidur,
Sarvu Tubi sendek o'lmoqning ne imkon qomati?
(3-jild, 645-bet).*

7. Tubi:
*Huri aning ruhi musavvar kibi,
Qaddu labi tubi-yu, kavsar kibi. (6-jild, 91-bet).*

Oy va quyoshdan ikki Ka'ba (Ka'batayn) yaratdilar:

*Solmoq uchun tosi sipehr ichra shayn,
Oy-u quyoshdin qilibon Ka'batayn.
(Mukammal asarlar to'plami, 7-jild, 15-bet).*

*Eshakka toj kiydirib, Navoiyni masxaraboz qildilar:
Bir eshakdek boshingga afsar urub,
Nafsi o'z orqang uzra mindurub.
(“Lison ut-tayr”dan. To'la asarlar to'plami, 9-jild).*

Iso alayhissalomni odamlarni jinni qiluvchi deb masxara qildilar:
Kim mujannindur, Iso qabriga butgan har chechak.

Sharof Rashidov bunaqa ma'naviy jinoyatlarga guvoh bo'lmagan. U bilan bog'liq bir voqeani eslab o'tish joizdir. Kamina 1973-yilda "Sharq yulduzi" jurnalining 5-sonida "Nashr va mas'uliyat" nomli maqola e'lon qildim. Unda Ogahiy "Asarlar"ining ikki jildidagi matn nuqsonlari qalamga olingan edi. Buni o'qigan Sharof Rashidov iyul oyida bu kitoblarni nashrga tayyorlagan Toshkent davlat universitetining adabiyot kafedrasida mudiri, professor G'ulom Karimov va shu kafedra dotsenti Subutoy Dolimov, nashriyot direktori Hamid G'ulom, bosh muharrir Tohir Ibrohimov va o'rinbosari Ibrohim G'afurovni O'zbekiston markazqo'mida muhokama qilib jamoaga hayfsan e'lon qildilar.

Olimga xizmati uchun alqov-mukofot ham kerak. Xatosi, jinoyati uchun jazo ham kerak. Diniy-ma'rifiy va ilmiy-adabiy nuqsonlar hamma zamonda jazoga mustahiq topilgan. Husayn Boyqaro zamonida xorazmlik mashhur olimni kufr nuqsonida ayblab, Hirotga keltirib murofaa uyushtirilgan. Olim o'ziga qo'yilgan ayblarning asossizligini olimlar davrasida isbotlab bergan. Yoki Husayn Boyqaroning vaziri Soneynning Alisher Navoiyga biroz tegib ketadigan: ertaga jang maydonida Alisherning qilich tutgan bilagi kuchi sinaladi mazmunidagi bayti elga ovoza bo'lgani uchun Husayn Boyqaro Navoiy sha'nini yoqlab, Soneyni 2 yil zindonga soladi va dorga ostiradi.

Bizning akademiyadagi navoiyshunoslarimiz Ibrohim Haqul, Sayfiddin Rafiddinovlar fiqh ilmini jin ilmi deb islom adliya ilmiga tupurdilar. Namoz-niyozi bo'hton yog'dirdilar. "Hayratul-abror"ga mingga yaqin rechu, shaporat, fushat, taroncha torib, torsa, kallaro'sh, chopoye, xopoye, toribon kabi antiqa so'zlarni kiritib daho asarini tamoman soxtalashtirdilar:

*Qolmadi chu o'zga menga chopaye
Qal'a yasardek toribon xopaye. (To'la asarlar to'plami, 6-jild, 55-bet)*

kabi baytlar bilan 6 jild to'lib yotibdi.

Bunday kitoblarni O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti navoiyshunoslari Xitoydan Amerikagacha tarqatdilar.

Alisher Navoiyning 30 mingta kitobini buzgan, soxtalashtirgan olimlarning har biri 10 millionlab pul oldilar. Ularga qanday jazo beriladi?

Boshqa olimning 10 ta adabiy versiyasini, o'n yillik ilmiy mehnatini o'zlashtirib o'z nomlaridan e'lon qilgan I.Haqqulov, S.Rafiddinov, M.Mirzaahmedova balki jazo-ga ham mustahiqdir.

Ular "Xazoyin ul-maoniyy" (to'rt devon), "Lison ut-tayr" va "Xamsa"ning — besh dostoni (G'afur G'ulom nashriyotida 2006, 2009-yilda da ikki marta nashr etilgan boshqa olim adabiy versiyalarini nashriyot kompyuteridan o'g'irlab, "To'la asarlar to'plami" ikki nashrida (2011, 2012) I.Haqqulov, S.Rafiddinov hamda M.Mirzaahmedova nomlarida e'lon qildilar.

Agar O'zbekiston adabiyotshunoslari, jumladan, navoiyshunoslar g'afiat pandemiyasida bo'lmasalar nega bu hodisalarni ko'rmaydilar, nega miq etmaydilar, faryod qilmaydilar? Kamina "Ma'rifat" gazetasida bu haqda "Jannat ichidagi do'zax" (18-mart, 2020-yil va "Billur ko'zgular toptalgan nashr" (28-avgust, 2020-yil), "Yakka tartibdagi ko'chirmachilik" (3-fevral 2021-yil) maqolalarini e'lon qildim.

Hech kim munosabat bildirmadi. Nega? O'zbekistonda Navoiy sha'ni va ijodini yoqlaydigan ziyoli va navoiyshunoslar yo'qmi?

Shumi bizning olimlik vijdonimiz harakati? Sukut, sukut...

Prezident Sh.Mirziyoyev Navoiy yubileyi panoramasini nega katta ochib qo'rganini anglamaymiz, sezmaymiz, ko'rmaymiz, bilmaymizmi?

Bir ulug' ma'rifatparvarimiz "Ko'z ochaylik" deb ziyolilarni chaqirgani bejiz emas ekan. XX asrda uyg'ongan o'zbek ziyolisi nega XXI asrda uyg'onmasin?!

Xudo xohlasa uyg'onadi! Navoiyni o'qiydi.

Uyg'onmoq uchun nimalar qilmoq kerak?

– Olimlarga Ollohdan vijdon uyg'oqligini o'tinib so'rash, gazeta va jurnallarda, radio va televidzorda Navoiy asarlari targ'ib va tashviqotini kuchaytirish;

– ilg'orini mukofotlash, o'g'rini jazolash;

– Navoiy kulliyotini uch karra buzgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Navoiy nomidagi institutiga Navoiy asarlari nashrini bermaslik;

– Navoiy asarlarini eng yaxshi o'qiydiganlar tanlovini o'tkazish;

– Navoiy asarlarini eng ko'p nashr ettirgan olim tanlovini o'tkazish;

– eng zakovatli navoiyshunos matnshunos tanlovini televideniye orqali shaffof o'tkazish;

– Navoiy asarlarini eng ko'p tahrir etgan olim tanlovini o'tkazish;

– Navoiy asarlaridan eng ko'p yodlagan kishi tanlovini poytaxtda va har bir viloyat, har bir shahar, tuman, maktabda o'tkazish va mukofotlash;

– Navoiy asarlarini eng ko'p o'qigan kishi tanlovi;

– Navoiy asarlariga eng ko'p kuy bastalagan bastakor;

– Navoiy g'azallarini eng ko'p va yaxshi ijro etgan hofiz;

– Navoiy asarlari lug'atini eng ko'p tuzgan olim;

– Navoiy asarlarini eng ko'p nashr etgan nashriyot;

– Navoiy haqida eng ko'p maqola e'lon qilgan gazeta va jurnallar;

– Navoiy haqida eng ko'p teleko'rsatuv uyushtirgan olim;

– Navoiy haqida eng ko'p teleko'rsatuv qilgan telerejissyor;

– Navoiy haqida eng ko'p radioeshittirish qilgan muallif olim;

– Navoiy haqida eng ko'p radioeshittirish qilgan rejissyor;

– Navoiy obrazini yaxshi yaratgan aktyor;

– Navoiy asarlari matni saviyasi haqida eng ko'p maqola va kitob yozgan kuyunchak muallif;

– Navoiy haqida eng yaxshi asar yozgan adib;

– Navoiy siymosini eng yaxshi yaratgan musavvir;

– Navoiy asarlariga eng ko'p illustratsiya chizgan rassom;

– Navoiy asarlari nashriyotidagi nuqsonlarni eng ko'p ko'rsatgan (maqola va kitob) muallifi tanlovi o'tkazilishi lozim.

Vahob RAHMONOV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 3- va 4-varianti tahlili

ONA TILI

1. Arxaik so'zlar qatorini belgilang.

- A) hojib, degrez
B) payg'om, bog'ot
C) yorg'ichoq, sovut
D) palaxmon, dubulg'a

Ushbu test topshirig'i abituriyentlardan leksikologiya bilan bog'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi. Bunda arxaik so'zlarni tarixiy so'zlardan farqlash lozim. Javoblarni tahlil qilishdan avval, tarixiy va arxaik so'zlar haqidagi nazariy ma'lumotlarni keltiramiz.

Tilimizning ma'lum davrida qo'llanib, hozirgi kunda foydalanilmaydigan so'zlarga tarixiy so'zlar deyiladi. O'z o'rnini boshqa so'zga bo'shatib bergan so'zlarga arxaik so'zlar deyiladi.

A javobda berilgan **hojib** (eshik og'asi), **degrez** (cho'yandan qozon quyuvchi) so'zlaridan hozirgi kunda foydalanilmaydi. B javobdagi **payg'om**, **bog'ot** so'zlari esa o'rnini boshqa so'zga bo'shatib bergan: **payg'om** (xabar), **bog'ot** (bog'lar, bog'li joylar). Shuningdek, C va D javoblarda berilgan **yorg'ichoq**, **sovut**, **palaxmon**, **dubulg'a** so'zlari ham A javobdagi kabi ma'lum davrdagina ishlatilib, bugungi kunda tarixiy so'zlar tarkibiga kirishi bilan ahamiyatlidir. Demak, nazariy ma'lumotga asoslanib, B javob to'g'ri deb qabul qilinadi.

Javob: B.

Manba: N. Mahmudov va boshqalar. 5-sinf “Ona tili” darsligi (126-bet). G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2020.

2. Hech qanaqa shartim yo'q. Ishlab u-bu orttirish niyatim ham yo'q.

Ushbu gapda olmoshning tuzilishiga ko'ra qaysi turlari ishtirok etgan?

- A) sodda, qo'shma B) juft, takroriy
C) qo'shma, juft D) sodda, takroriy

Ushbu test topshirig'i bajarish uchun abituriyentlardan so'z turkumlari haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi. Dastlab gapda ishtirok etgan olmoshlar aniqlanadi. **Hech qanaqa shartim yo'q. Ishlab u-bu orttirish niyatim ham yo'q.** Birinchi gapda **hech qanaqa**, ikkinchi gapda **u-bu** olmoshi qatnashgan.

Hech qanaqa olmoshi tuzilishiga ko'ra, ikki asosdan tashkil topgan. Shuning uchun qo'shma olmosh deb qabul qilinadi, **u-bu** olmoshi esa bir-biriga mazmunan yaqin bo'lgan olmoshlarning birlashtirilgan holida hosil bo'lganligi uchun juft olmosh sanaladi.

Demak, mazkur topshiriqning to'g'ri javobi C.

Javob: C.

Manba: N. M. Mahmudov va boshqalar. 7-sinf “Ona tili” darsligi. Toshkent “Ma'naviyat” – 2017.

3. Qaysi qatorda aniqlovchi ajratilgan bo'lak vazifasida kelgan?

- A) Qobil bobo, yalangbosh, yalangoyoq, eshik yonida dag'-dag' titraydi.
B) Oyimni, ya'ni Xosiyat Suvonovani, mukofotlashdi.
C) Uning qo'lidan ushlab ichkariga, mehmonxonaga, boshladi.
D) Bugun sizni yana, ikkinchi marta, kechirishdi.

Ushbu test topshirig'i bajarish uchun abituriyentlardan tilshunoslikning sintaksis bo'limiga oid gap bo'laklari bilan bog'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi. A javobda **yalangbosh**, **yalangoyoq** – aniqlovchi; B – javobda **Xosiyat Suvonovani** – to'ldiruvchi; C javobda **mehmonxonaga** – hol; D javobda ham **ikkinchi marta** – hol ajratilgan bo'lak vazifasini bajargan. Demak, A javob to'g'ri.

Javob: A.

Manba: M.Qodirov va boshqalar. 8-sinf “ona tili” darsligi. “Cho'lpon” nashriyot uyi. Toshkent – 2019.

4. Seni unutmamas yuragim aslo, ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo.

Ushbu gapdagi ostiga chizilgan so'z qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A) undalma B) ega C) kiritma D) kesim

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo'laklar bilan bog'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi. Bu gapda ega vazifasida **yuragim** so'zi; kesim vazifasida **unutmamas** so'zi kelgan. Kiritma esa qatnashmagan. Topshiriqda tagiga chizilgan so'z grammatik jihatdan gapdagi hech bir bo'lakka bog'lanmagan. Bunday bo'laklar haqidagi nazariy ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, to'g'ri javob sifatida A javob qabul qilinadi.

So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsani bildiradigan so'z yoki birikma undalma deyiladi. Undalma grammatik jihatdan hech bir bo'lakka bog'lanmaydi. Undalma alohida ohang bilan ajratilib aytiladi: **Seni unutmamas yuragim aslo, ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo.**

Javob: A.

Manba: M.Qodirov va boshqalar. 8-sinf “Ona tili” darsligi. “Cho'lpon” nashriyot uyi. Toshkent – 2019.

5. Qaysi gapda uslubiy xatolik mavjud emas?

- A) Hozir kuyovimga telefon qilaman, qamoqdan bo'shaganimizda Dyun bilan uchovimiz tushgan sur'atini olib keladi.
B) Karl yagona yashar, onasi yetti yil burun vafot etgan, otasi taniqli etnograf Gerhard Myuller, ko'p vaqtini arxeologik safarlarda o'tqazar, nega bir nemis oilasi o'zbek mahallasida turib qolganini hech kim bilmasdi.
C) Men hayotimga kunlar qo'shishni emas, kunlarimga hayot qo'shishni tilayman.
D) Har qanday zamonda kitob o'qigan insonlar film tomosha qilgan odamlar ustidan yetakchilik qilganlar.

Ushbu test topshirig'i orqali abituriyentlarning nutqda so'zlarni to'g'ri qo'llash malakasi o'rganiladi. A javobda **sur'at** so'zi uslubiy xatolikni vujudga keltirgan. Chunki **sur'at** so'zi **jadallik**, **tezlik** so'zlarining ma'nodoshi sanaladi. Aslida bu gapda paronimi **surat** so'zi qo'llanilishi lozim. B javobda ma'nodosh so'zlarning qo'llanishida xatolik bor. **Yagona** emas, **yolg'iz** so'zi qo'llanilsa nutqning to'g'riligi ta'minlanadi. C javobda ham **tilayman** so'zi o'rinda **xohlayman** so'zi qo'llaniladi. D javobda esa, barcha so'zlar o'z o'rinda qo'llanilgan.

Javob: A.

Manba: Baxtiyor Mengliyev va boshqalar. 11-sinf “Ona tili” darsligi. “O'qituvchi” nashriyot-matbaa uyi. Toshkent – 2020.

Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz shahridagi 23-maktab o'qituvchisi

MATEMATIKA

1. Stol ustida 2 ta fizika, 2 ta tarix va 2 ta matematika kitoblari bor. Tavakkaliga bitta kitob tanlandi, u matematika. Ikkinchi marta tanlashda fizika kitobi bo'lishi ehtimolini toping?

- A) 0,4 B) 0,4 C) 0,2 D) 0,6

Yechilishi: Agar bitta kitob olingan va u matematika bo'lsa, demak stol ustida 2 ta fizika, 2 ta tarix va 1 ta matematika, jami 5 ta kitob qoldi. Beshta kitobdan 2 tasi fizika. Demak, tanlangan kitobning fizika bo'lishi ehtimoli $\frac{2}{5} = 0,4$ ga teng.

Javob: A.

2. 1:10000 masshtabli chizmada 3 mm bo'lgan masofa aslida necha metrga teng?

- A) 3 B) 30 C) 0,3 D) 0,03

Yechilishi: Avvalo masshtab cm.da berilishini eslatib o'tamiz. Demak 1 cm.ga 10000 cm to'g'ri keladi.

$$3 \text{ mm} = \frac{3}{10} \text{ cm ligidan } \frac{3}{10} \cdot 10000 = 30000 \text{ cm,}$$

$$3000 \text{ cm} = 30 \text{ m}$$

Javob: B.

3. Agar $-5,8 > -5,56$ tengsizlik to'g'ri bo'lsa, 4,26 ning butun qismini, aks holda 6,75 ning kasr qismini toping.

- A) 0,26 B) 4 C) 0,75 D) 6

Yechilishi: manfiy sonlarni taqqoslashda ularning modullari taqqoslanadi, qaysi birining moduli katta bo'lsa, shunisi kichik bo'ladi. Demak, $-5,8 > -5,56$ tengsizlik noto'g'ri. Demak, biz shartning 6,75 ning kasr qismini topish shartini bajaramiz.

$$[6,75] = 0,75$$

Javob: C.

4. Mashina 100 km yo'lga 8 litr yonilg'i sarflaydi, A dan B gacha bo'lgan birinchi yo'lga 50 km/soat tezlik bilan 5 soat sarflaydi, ikkinchi yo'lga 80 km/soat tezlik bilan 3 soat sarflaydi, u qaysi yo'ldan yursa kam yonilg'i sarflaydi va necha so'mlik yonilg'i tejaydi (1litr=6000 so'm)

- A) 1-yo'lda 4800 so'm B) 2-yo'lda 4800 so'm
C) 1-yo'lda 3200 so'm D) ikkalasi teng bo'ladi

Yechilishi: keling, har bitta mashina jami necha km yurishi, necha litr benzin sarflashi va necha so'm bo'lishini hisoblaylik:

$$1\text{-yo'lda: } 50 = 250 \text{ km yo'l,}$$

$$250 \cdot \frac{8}{100} = 20 \text{ litr, } 20 \cdot 6000 = 120000 \text{ so'm}$$

$$2\text{-yo'lda: } 80 = 240 \text{ km yo'l,}$$

$$240 \cdot \frac{8}{100} = 19,2 \text{ litr, } 19,2 \cdot 6000 = 115200 \text{ so'm}$$

Javob: B.

5. O'lchamlari 12 m, 10 m va 5 m bo'lgan to'g'ri burchakli parallelepiped ko'rinishidagi basseynni suv bilan to'ldirishmoqchi. Agar quvurdan har minutda 1 kub metr suv basseynga tushsa, basseyn necha soatda to'ldi?

- A) 10 B) 100 C) 600 D) 60

Yechilishi: parallelepipedning hajmi $V=abc$, ya'ni uchchala o'lchovi ko'paytmaga teng.

Bizning misolda $V = 12 \cdot 10 \cdot 5 = 600 \text{ m}^3$ bo'ladi.

$$1 \text{ minutda } 1 \text{ m}^3 \text{ bo'lsa, } 600 \text{ m}^3 \text{ 600 minut = 600:60 = 10 soatda.}$$

Javob: B.

Manba: M.A.Mirzaahmedov, A.A.Rahimqoriyev, Sh.N.Ismailov, M.A.To'xtaxodjayeva. “Matematika”, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-, 6-sinfi uchun darsliklari. “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2017.

Keyingi sonda “Tenglama va tenglamalar sistemasi (chiziqli tenglama va chiziqli tenglamalar sistemasi)” mavzusida murakkabroq testlar beriladi, bunda testlar 5–8-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi 32-maktab o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI

1. Quyidagi qaysi jangda Amir Temur mag'lubiyatga uchragan?

"Ma'rifat" repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 5- va 6-varianti tahlili

- A) "Anqara jangi"
B) Qunduzcha jangi
C) Arzinjon yaqinidagi jangda
D) "Loy jangi"

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining o'rta asrlar davriga oid. A javobdagi "Anqara jangi" 1402-yil 20-iyulda Amir Temur va Sulton Boyazid qo'shinlari o'rtasida bo'lib o'tgan va Amir Temur g'olib chiqqan. B javobdagi Qunduzcha jangi 1391-yilda Amir Temur va To'xtamishxon qo'shinlari o'rtasida bo'lib o'tgan va Amir Temur g'olib chiqqan. C javobdagi "Arzinjon yaqinidagi jang" Jaloliddin Manguberdi hayoti bilan bog'liqdir. 1230-yilning avgust oyida Ko'nya, Jazira, Damashq va Misrning birlashgan qo'shinidan Jaloliddin Manguberdi kuchlari Arzinjon yaqinidagi jangda mag'lubiyatga uchragan.

D javobdagi "Loy jangi" 1365-yilning 22-may kuni Amir Temur hamda Amir Husayn ittifoqi va Ilyosxo'ja o'rtasida bo'lib o'tgan. Jangda Amir Temur qo'shini g'olibona harakat qilib, dushman qo'shinining o'ng qanotiga qaqshatqich zarba berayotgan bir paytda Husayn o'z askarlarini raqibning so'l qanotiga tashlamay, jang maydonini tark etadi. Amir Temur chekinishga majbur bo'lgan.

To'g'ri javob: D.

Manba: A. Muhammadjonov. "O'zbekiston tarixi" 7-sinf darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2017. (112-bet)

2. Xorazmshohlar davlatining hukmdori Qutbidin Muhammad faoliyati bilan bog'liq to'g'ri ma'lumot berilgan javobni aniqlang.

- A) "Xorazmshoh" unvonini qayta tiklagan
B) Xorazmning saljuqiylar davlatidan mustaqilligini qayta tiklagan
C) Movarounnahrni qoraxitoylar zulmidan ozod etgan
D) Eronni Xorazmga bo'ysundirgan

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining o'rta asrlar davriga oid.

B javobdagi Xorazmning saljuqiylar davlatidan mustaqilligini qayta tiklagan xorazmshoh Otsiz. C javobdagi Movarounnahrni qoraxitoylar zulmidan ozod etgan xorazmshoh Alovuddin Muhammad. D javobdagi Eronni Xorazmga bo'ysundirgan xorazmshoh Takash.

To'g'ri javob: A.

Manba: A. Muhammadjonov. "O'zbekiston tarixi" 7-sinf darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2017 (61-bet).

3. Buxoro amirligida Bosh inoqning zimmasida quyidagi qaysi vazifa bo'lgan?

- A) chet mamlakat elchilari taqdim etadigan hujjatlarini qabul qilib olish
B) arablar jamoasi masalalari bilan shug'ullanish
C) soliqlik va boshqa yig'imlardan tushgan mablag'larning belgilangan o'rinlarda qanchalik to'g'ri sarflanishini nazorat qilish
D) kelgusida davlat mansablariga tayinlanishi mumkin bo'lgan xizmatchilarning faoliyatini tashkil etish

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XVI-XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davriga oid. A javobdagi amaldor Kichik inoq, B javobdagi amaldor parvonachi, C javobdagi amaldor mehtar.

To'g'ri javob: D.

Manba: U. Jo'rayev, Q. Usmonov, G. Jo'rayeva, N. Norqulov. "O'zbekiston tarixi" 8-sinf darsligi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2019 (59-bet).

4. Nima sababdan XIX asr so'nggi choragida Turkistondagi masjid va madrasalarning moddiy ahvoli yomonlashdi?

- A) diniy ilmlarni o'rganishga e'tiborning susayganligi
B) jadid maktablarining tashkil etilishi va mablag'larning yangi maktablarga sarf etilishi

C) diniy ruhoniylarning ta'qib ostiga olinishi, qozikalon lavozimining tugatilishi

D) vaqf yerlari nazoratining mustamlakachi hukumat qo'lga o'tishi

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarigacha bo'lgan davriga oid. Vaqf mulklarini nazorat qilish mustamlakachi hukumat vakillari qo'lga o'tishi bilan masjidlar va maktablarning moddiy ahvoli yomonlashdi. Mustamlakachi hukumat bu bilan mahalliy din peshvolari, ulamolar va diniy muassasalarga zarba berishga harakat qildi.

To'g'ri javob: D.

Manba: S. Tillaboyev, A. Zamonov. "O'zbekiston tarixi" 9-sinf darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2019 (50-bet).

5. Tarixchi Hofiz Tanish al-Buxoriy o'z asarlaridan birida "Uning davlati va xalofati zamonida Movarounnahr, ayniqsa, Buxoro viloyati gullab-yashnadi", deya kimning davrini nazarda tutgan?

- A) Abdullaxon II B) Ubaydullaxon II
C) Ubaydullaxon I D) Navro'z Ahmadxon

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XVI-XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davriga oid. Tarixchi Hofiz Tanish al-Buxoriy Ubaydullaxon I davri haqida "Uning davlati va xalofati zamonida Movarounnahr, ayniqsa, Buxoro viloyati gullab-yashnadi" deb ta'kidlab o'tgan. Shayboniy Ubaydullaxon 1530-1533-yillarda hukmronlik qilgan.

To'g'ri javob: C.

Manba: U. Jo'rayev, Q. Usmonov, G. Jo'rayeva, N. Norqulov. "O'zbekiston tarixi" 8-sinf darsligi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2019 (57-bet).

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti
magistranti

O'rtaqishloq g'unchalari

Adabiyot to'garagi

Maktablarda ijodiy-madaniy maslalar bo'yicha targ'ibotchilar faoliyat boshlagandan beri o'quvchilarning san'at va adabiyotga, kitobga bo'lgan qiziqishlari anchayin o'sdi. Ular boshchiligidagi maktablarda turli to'garaklar yo'lga qo'yilgan. Xususan, Tayloq tumanidagi 41-maktabda ham ijodkor o'qituvchi Mamadamin Rajabov rahbarligida o'quvchilar qalbidagi iste'dod uchqunlari alanganmoqda, qalamlari charxlanmoqda. Ularning ijodiy mashqlaridan namunalarni e'tiboringizga havola qilamiz.

Koronavirus

Ketsin virus balosi,
Yurtda bayramlar bo'lsin.
Hamma shod-xurram bo'lib,
Yashasin, o'ynab kulsin.

Qo'llasin doim Xudo,
Sog' bo'laylik har qachon.
Obod bo'lsin, yashnasin,
Ona yurt — O'zbekiston.

Farangiz IBROHIMOVA,
5-"V" sinf o'quvchisi

O'zbek qizi

O'zbek qizi oy qizdir,
O'ziga bek, boy qizdir.
Nigohlari chiroyli,
Qo'llari shirin, bolli.

Barcha ishni eplaydi,
Ko'zingizga boqmaydi.

Har yerda ham, avvalo,
Odobini saqlaydi.

Egnida guldayin libosi bordir,
Boshida do'ppi-yu, hayosi bordir,
Yuragida mehr-u vafosi bordir —
O'zbekim qizlarining.

Qarasa, ko'zidan mehr yog'ilar,
Kulsa, kulgusidan sehr yog'ilar,
Chiroyidan olam nurlarga to'lar —
O'zbekim qizlarining.

Nigina G'OZIYEVA,
6-"A" sinf o'quvchisi

"Katta shoir bo'laman!"

Maktabda ilm olib,
Kuch-qudratga to'laman.

Bir kun kelib, albatta,
Katta shoir bo'laman!

Ma'mur KAMOLIDDINOV,
9-"A" sinf o'quvchisi

Onam

Bog'da gullar teraylik,
Onalarga beraylik.
Bizdan xursand bo'lsin deb,
Bitta o'pib qo'yaylik.

Sizni yaxshi ko'raman,
Mehribonim, onajon.
Qizingizning baxtiga,
Doim bo'ling sog'-omon.


Zaynura ORZIQULOVA,
8-"A" sinf o'quvchisi

Qishlog'im

Oydan oydin kechalari,
Chang-to'zonli ko'chalari.
Shirin-shakar mevalari,
Quyoshlidir tonglari.

Go'zal bahori, yozi,
Musaffodir havosi.
Oq oltinning konidir,
Mehrning makonidir.

Gulsevar ORZIQULOVA,
7-"V" sinf o'quvchisi



Farishtam

Onajonim, baxtimga siz borsiz,
Boshimda tunlari bedorsiz.
G'am netigin bilmas bu jonim,
Siz tufayli, mehribonim.
Pokiza, sarishtamsiz,
Siz mening farishtamsiz!

Rushana YO'LDOSHEVA,
5-"A" sinf o'quvchisi

Atoqli adabiyotshunos olim Hamidjon Homidiyning Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetidagi qariyb yarim asrlik faoliyatidan qatralar tarzida yaratilgan mazkur tazkirasida ustozlari, safdoshlari hamda shogirdlari bilan bog'liq unutilmas xotiralari o'ta samimiyat va cheksiz minnatdorlik hislari bilan qalamga olinadi.

"Nizomiy dilbandlari"

Kitobni o'qir ekansiz, dastlab so'z go'yo olimning o'zi haqida borayotgandek tasavvur uyg'otadi kishida. Ma'lum satrlardan so'ng muallifning uslubiy oydinlashadi: dastlab hikoyalamoqchi bo'lgan ijodkor shaxs bilan bog'liq xotiralarga o'rin berilib, so'ngra maqsadga o'tiladi, ta'rif-u tavsiflar qilinadi. Bunday yondashuv kitobxonning qalamga olingan ustozlar hayoti va a'mollari qiziqishini oshiradi, zerikishlardan asraydi, badiiy asar kabi o'qishlikni ta'minlaydi.

E'tiborlisi, kitobning har bir so'z, har bir jumlasida oliygohning respublika uzluksiz ta'lim tizimiga mutaxassislar yetkazishdagi o'rni munosib baho beriladi. Bu mo'tabar dargohning O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, O'zbekiston Qahramonlari, fan va san'at arboblari, xalq yozuvchilari, nomdor musavvirilar, hofizlar, adabiyotshunoslari, pedagog-psixologlar kamolotidagi zalvorli ulushidan ichki faxr va g'urur tuyg'ulari seziladi.

Tazkira "Muqaddima", "Ilm, fan dargohi", "Taqrizchilar, faylasuflar", "Adabiyotshunoslari, tilshunoslari", "Pedagoglar, psixologlar", "Matematik, fizik va biologlar" hamda "Xotima" kabi sarlavhalar ostida turkumlarga bo'lingan bo'lib, ularda olim hamnafas, hammaslak bo'lgan ko'pgina "nizomiychi ustozlar"ning odamiylik fazilatlarini, umr zarvarlariga abadiy muhrlangan eziguliklarga esh saboqlari mamnuniyat bilan chiziladi.

Kitobning "Ilm, fan dargohi" bo'limida bu ilm maskanining sobiq talabalari yaratgan ta'dqiqotlarning ham nazariy, ham amaliy ahamiyati kimyo-biologiya fanlari doktori, professor F.Qurbonovning respublikada gaz qazib olish, ulkan muzxonalar qurishda asqotayotganligi; biologiya fanlari doktori S.Daveyning paxtachilikdagi kashfiyoti sohani rivojlantirishga katta xizmat qilayotganligi; biologiya fanlari doktori L.Shamsivaliyevaning yangi topilmalaridan farmatsevtika korxonalarida foydalanilayotganligi; fan doktorlari, professorlar N.Mallayev, M.Asqarova, Z.Do'simov, R.Mavlonova, F.Barotov singari o'nlab olimlar tomonidan yaratilgan darsliklar uzluksiz ta'lim tizimida barqaror darsliklar sifatida muqim qo'llanilib kelinayotgani; matematika fanlari doktori K.Xudoybergonovning ta'dqiqotlari jahon olimlari tomonidan e'tirof etilgani haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, kitobda universitet kafedralarini boshqargan zamon allomalari S.Rajabov, E.Yusupov, Sh.O'lmasboyev, R.Mallin, M.Davletshin, S.Usmonzodalarining yoshlarga ilmiy ta'dqiqot sirlarini o'rgatishdagi rahnamoliliklari bayon etilgan. U.Mahkamov, O.Tog'ayev, M.Murodov, M.Rajabov kabi olimlarning turli yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlariga, ilmiy muassasalarga yuqori darajadagi ilmiy xodimlar tayyorlab berishdagi hissalari ehtirom bilan so'zlangan.

Y.G'ulomov haqidagi "Ustoz yo'lidan borib", N.Mallayev to'g'risidagi "Poktynat", S.Usmov haqidagi "Qaytib kelsangiz ishgah olmayman", Sh.Abdurrahmonov to'g'risidagi "Shevashunoslari peshvosi" singari xotiralari H.Homidiyning chin inson va zabardast olim sifatida yuksalishi zaminida ilm yo'lidagi chekkan zahmatlari, hayotida uchragan to'siqlarni yengishda rahnamolik qilgan ustozlari o'g'itlari tom ma'noda dasturulamal bo'lganligini sezish qiyin emas.

"O'zbek klassik adabiyoti bo'yicha kunduzgi aspiranturaga qabul qilingach, mashhur olim,



Sharh filologiyasining nuktasani bilimdoni Natan Murodovich Mallayev ilmiy rahbar qilib belgilandi, deb yozadi muallif. — Oradan ko'p o'tmay ustozim "Shohnoma"ning klassik o'zbekcha tarjimalari"ni nomzodlik dissertatsiyamning mavzusi sifatida tavsiya etdilar. Men O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti xazinasida Firdavsiy "Shohnoma"sining XVII-XVIII asrlarda bajarilgan ikkita nazm va nasr aralash tarjimasining qo'lyozmalarini mavjudligini aniqladim. Ulardan

Xomushiy tarjimasi esa 1903, 1906, 1909-yillarda toshbosma usuli bilan uch marotaba nashr etilgan... Dastxat-u nashriy nusxalarining har biri 700 sahifadan oshardi. Arab yozuvidagi shuncha manbani o'qib chiqish vazifasi meni vahimaga solib qo'ydi. Shuning uchun kunlardan bir kun xonasi kelganda ustozimga iymonibrog shunday



dedim:

— Natan Murodovich, "Shohnoma" tarjimalari juda katta asarlar ekan, eski yozuvdan hali mashqim raso emas, ularni bir yilda ham o'qib chiqolmayman, menga ixchamroq mavzu bering.

Ustozim o'zlariga xos vazminlik bilan o'yaniib turdilar-da:

— Hamidjon, men sizni zahmatkash yigit deb o'ylovdim, ilmda yengil yo'l qidirishning oxiri baxayr bo'lmaydi, deb gapni cho'rt kesdilar".

Tazkirada G'.Karimov, X.Nazarova, J.Qobulniyozov, F.Sulaymonova, M.Asqarova, T.Hamidova, F.Karomatov, M.Mirtojiyev, A.Hojiahmedov, S.Mirvaliyev, B.Akram, S.Akbariy, X.Sattorov, S.Ashirboyev, Q.Qahramonov kabi adabiyotshunos va tilshunos olimlar; M.Davletshin, R.Mavlonova, J.Jalolov, M.Mamadazimov, E.G'oziyev, U.Nishonaliyev, G'.Shoumarov, M.Jo'rayev, J.Tolipova, B.Abdullayeva, A.Akramov kabi pedagog-psixologlar; M.Xaliullin, N.Sherboyev, S.Dadayev kabi ko'plab sohibqalam olimlarning faoliyati baholi qudrat qamrab olingan. Bunda olimning teran kuzatishlari, o'tkir nigohi, bir necha yillik, lekin navqiron xotiralarga tayanilgan.

Xulosa qilganda, Hamidjon Homidiyning "Nizomiy dilbandlari II" tazkirasida tilga olingan ko'plab ustozlarning ibrat va namunaga loyiq ezgu amallari bilan yo'g'rilgan hayotlari bugungi kun yoshlarini axloqiy-ma'naviy tarbiyalashda muhim manba bo'lishini va uni nashr etish muhimligini ta'kidlash joiz.

Safo MATCHONOV,
pedagogika fanlari doktori,
professor

Oqrabotdan taralgan yog'du

Azim Qashqadaryo bo'yida joylashgan Oqrabot qishlog'i tumanimizning eng aholisi zich joylashgan hududlaridan sanaladi. Bu hududda o'nlab qishloqlar bo'lib, shunga yarasha ilm maskanlari bo'lmish maktablar ham anchagina. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi bu boradagi ishlarni tubdan isloh qilishga me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi. Buning natijasi o'laroq umumta'lim maktablarida faoliyat boshlagan ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimida faoliyat yuritib boshlagan ijodkorning sa'y-harakatlari bois, chekka qishloqlarimizda ham san'atga, adabiyotga ishtiyoqmand o'nlab murg'ak qalb sohiblari kashf etilmoqda. Ularning ijod namunalari tuman, viloyat, respublika gazeta va jumallari yoritila boshlandi. O'lis Oqrabot hududidagi Gulshan qishlog'ida joylashgan 44-maktabda iste'dodli shoir Sharifjon Ahmad (Normurodov) tashkil etgan "Parvoz" adabiy to'garagi ochilganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, to'garak a'zolarining ijod namunalari allaqachon she'riyat shaydolarining qalbidan joy olishga erishdi. Ushbu mo'jazzina to'plamga kiritilgan she'rlarni mutolaa qilar ekanmiz, millat kelajagi, yurt ravnaqi, Vatan taraqqiyotining ertangi kuni ishonchli qo'llarda ekanligiga amin bo'lamiz. Yosh ijodkor O'g'lioy Norboyevaning "Yoshlar" she'ridan:

Ko'kda hilpiray bayrog',
G'ururimiz misli tog',
Kel, bizlarga bo'l hamroh,
O'zbekiston yoshlari.

"Parvoz"chilarning adabiyot osmoni uzra umidbaxsh parvozlari xayrli bo'lishi va tumanimizning boshqa ijodkor o'quvchilariga ham tom ma'noda rag'bat, ijodiy muhit gullab-yashnashiga turtki berishiga ishonamiz.

Sabohat XUDOYQULOVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Qamashi tumani bo'limi rahbari

"Qizimning maktubi"ni o'qib...



Qamashi azaldan ijodkorlar yurti. Yaqinda jonbo'zoylik muallifi, nazm va nasr olamiga o'zining dadil, teran fikrlari bilan kirib kelayotgan Risolat Jumazarovaning "Qizimning maktubi" nomli she'r, esse va hikoyalardan iborat to'plamini o'qib, asar to'g'risida, qolaversa uning muallifi haqida so'z aytish istagi tug'ildi.

To'planning hajmi kichikroq bo'lsa-da, undan joy olgan bitiklar rang-barangligi, yodda qoladigan she'riy misralarning mazmundorligi har qanday adabiyot ilxosmandini o'ziga oshno etadi. Kitobga so'zboshi yozgan adib O'rolboy Qobil muallifni o'quvchiga tanishtirish bilan birga, ijodkor muallifning

yangi kitobi ham sizlarga doimiy hamroh bo'lishiga ishonch bildiradi. Men ham kitobni o'qib chiqqach, tumanimiz ijodkorlari safiga yana bir iste'dodli shoir va adiba kelib qo'shilganidan chin dildan quvondim. To'g'ri, kamina bugungacha uning respublikamizning markaziy nashrlari — "Ma'rifat" gazetasi va "Yoshlik" jurnalida chop etilgan esselari va turkum she'rlari bilan tanishgan edim. Va ular menda iliq taassurot qoldirgan edi. To'plamga kirgan esselarning o'qishli ekanligini qayd etish bilan birga, ayniqsa "Farishtali kelin" va "Folbin" hikoyalari hayotiyli, sodda ifodasi, tarbiyaviy ahamiyati jihatdan xotirangizda saqlanib qoladi. Undagi voqealar kundalik turmushimizda har qadamda uchraydigan hayot chizgilaridir. Izlanuvchan ijodkorning bunday o'qishli asarlar bitishiga, eng avvalo, uning bilimlar xazinasiga bo'lgan kitoblar bilan bolalikdan oshno bo'lganligi, oilaviy muhit, oliy dargohda Poyon Ravshanov, To'ra Nafasov kabi zabardast ilm zahmatkashlaridan olgan bilimlarining samarasi bo'lsa ne ajab?!

Sayfulla al-MUROD,
shoir

Qamashi

Tarbiyaning o'zagi – o'rnak

Shu bilan birga bugungi davr o'qituvchi oldiga bir qator muhim va hayotiy vazifalarni qo'yimoqda. Shu bois, har bir o'quvchini o'z farzandim kabi ko'rib, dunyoqarashi, qiziqishlarini inobatga olgan holda turli tadbirlar, interaktiv o'yinlar, muloqotlar tashkil etaman.

Deylik, bir gal "Kim chaqon?" o'yinida uyga vazifa qilib o'zbek xalq maqollarini yodlash va uni mavzusiga qarab aytish shartini qo'ydim, o'quvchilar oilada yoshi kattalar bilan birgalikda maqollarni jamlashdi va ularni guruhlarga bo'lib shartni bajartirdim. Shunda bildimki, hamisha mashg'ulotlarni xalqimiz hayoti va madaniyati bilan bog'lab olib borish, ko'proq anglash va tushunishga yordam berish – o'quvchi qobiliyatlarini shakllantiradi. Psixologik tarbiya bo'lib xizmat qiladi. Axir tarbiyaning o'zagi ham o'rnak bo'lishdadir. Sinfda besh tashabbus doirasida burchak tashkil etilgan. Haftaning har bir kuni bir yo'nalishga bag'ishlanadi. Masalan, dushanba – kitobxonlik kuni,

seshanba – mehnatsevarlik, chorshanba – sportchilar kuni kabi... O'quvchilar har bir kun uchun alohida tayyorgarlik ko'rib kelishadi. Bu haqida matbuotda chiqishlar qilib kelmoqdaman, bu, albatta, tajriba almashish, bilimlarni oshirishda qo'l kelmoqda.

Vatan haqidagi qarashlarni boyitish, yosh avlodni yurtga sadoqat ruhida ulg'aytirish kabi ulug' ishda ozmi ko'pmi o'rnim borligidan mamnunlik his qilaman. Kelgusida ham bor imkoniyat, mehnatim va bilimimni xalqimiz farzandlarini tarbiyalashdek ulug'vor ishga safarbar etaveraman.

Surayyo SAIDNABIYEVA,
Kasbi tumani
56-maktab o'qituvchisi

Uljayev Faroxiddin Baxridinovichning 05.09.07 — Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Daryo o'zanlarining himoya dambalari bilan boshqarilishi sohasida deformatsion jarayonlar jadalligini baholash" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandisligi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.10.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 26-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy.

Tel/faks: (71) 237-09-45, 237-38-79; e-mail: admin@tiame.uz

Mirzayev Shoxrux Fayzullayevichning 06.01.01 — Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo'yicha "Kuzgi bug'doyda o'g'itlar me'yori va kompost qo'llashning tuproq unumdorligi hamda ekinlar hosildorligiga ta'siri" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi,

Oliygo'chasi, 1-uy. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali.

Tel/faks: (74) 373-10-54, 373-13-63; e-mail: agai info@edu.uz

Raximov Mirzoxid Alisher o'g'lining 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Kuzgi bug'doyning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga fosforli o'g'itlarning qo'llash usul va me'yori ta'siri" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-noyabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi,

Oliygo'chasi, 1-uy. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali.

Tel/faks: (74) 373-10-54, 373-13-63; e-mail: agai info@edu.uz

Latipov Marat Xudoyorovichning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "G'o'za navlarining hosildorligi va chig'it sifatiga polidif defoliantining ta'siri" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-noyabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi,

Oliygo'chasi, 1-uy. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali.

Tel/faks: (74) 373-10-54, 373-13-63; e-mail: agai info@edu.uz

Dusbayev Iso Ramazanovichning 06.01.01 — "Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo'yicha "Ingichka tolali g'o'za dalalaridagi begona o'tlarga qarshi kurash tadbirlarini ishlab chiqish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-noyabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi,

Oliygo'chasi, 1-uy. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali.

Tel/faks: (74) 373-10-54, 373-13-63; e-mail: agai info@edu.uz

Baxronov Jur'at Djurakulovichning 14.00.02 — Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Surunkali nur kasalligida buyraklar morfometrik ko'rsatkichlarining qiyosiy tavsifi va postnatal ontogeneza biostimulyatorlar ta'siridagi o'zgarishlar" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 25-noyabr kuni soat 12:00 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.

Buxoro davlat tibbiyot instituti bosh binosi kichik majlislar zali.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Omonova Nargiza Maxmudjonovnaning 06.01.09 — O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha "Pomidor o'simligining zamburug'lar qo'zg'atadigan kasalliklari va ularga qarshi kurash choralarini takomillashtirish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-noyabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi,

Oliygo'chasi, 1-uy. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali.

Tel/faks: (74) 373-10-54, 373-13-63; e-mail: agai info@edu.uz

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimn.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Rashidov Jasur G'ayrat o'g'lining 05.09.01 — Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar ixtisosligi bo'yicha "Binolarning ko'p qatlamli yengil to'siq konstruksiyalarining tovush izolyatsiyasini oshirish" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-noyabr kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"b" uy.

TAQI Arxitektura fakulteti.

Tel/faks: (71) 241-10-84, 241-80-00; e-mail: devon@taqi.uz

Sattarov Mas'udjon Axtamovichning 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonning sug'oriladigan sharoitida soya uchun boshlang'ich mamba va yangi navlar yaratish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/27.02.2020.Qx.42.02 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 23-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy, Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.

Tel/faks: (78) 150-62-84; e-mail: paxtauz@mail.ru

Raxmanova Vazira Norqulovnaning 02.00.06 — Yuqori molekulyar birikmalar (kimyo fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Bombyx mori sulfatlanagan xitozanning sintezi, strukturalari va xossalari" mavzusidagi(kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 26-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"b" uy.

Tel/faks: (71) 241-85-94, 241-26-61; e-mail: polymer@academy.uz

Xudoyberdiyev Dilshod Karimovichning 14.00.02 — Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Surunkali nur kasalligida oshqozon morfometrik ko'rsatkichlarining qiyosiy tavsifi va postnatal ontogeneza biostimulyator ta'siridagi o'zgarishlari" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 2-dekabr kuni soat 12:30 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Aliyev Navruz Xasanovichning 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "Chakka-pastki jag' bo'g'imi noaritikulyar patologiyasini tashxislash va davolashni mukammallashtirish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 25-noyabr kuni soat 14:00 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Sevimli "Marifat"
gazetangizga
obuna bo'ling!



"MARIFAT" GAZETASIGA 2022-YIL UCHUN OBUNA BO'LIH TARTIBI:

☑ Endi tahririyatimizga murojaat qilib, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan obuna bo'lishingiz mumkin.

Telefonlar: (71) 233-56-36,

(71) 233-42-92,

(71) 233-85-09.

Bunda sizga telegram yoki elektron pochta orqali obuna blankasi jo'natiladi.

☑ 149 indeksi orqali imtiyozli, arzonlashtirilgan narxda obuna rasmiylashtirishingiz mumkin. Faqat bunda to'liq bir yilga obuna bo'lishingiz kerak bo'ladi. Bu indeks orqali bir yillik obuna narxi Toshkent shahri uchun **370 760** so'm. Viloyatlar uchun **419 120** so'm

☑ 150 indeksi orqali 1 yildan kam mudatga ham (3 oy, 6 oy) obuna bo'lishingiz mumkin. Bunda 1 yillik obuna narxi Toshkent shahri uchun **447 005**, Viloyatlar uchun **505 310** so'm.

☑ Klik va Payme ilovalari orqali ham onlayn tarzda obuna bo'lish imkoniyati bor. Ilova orqali obuna bo'lsangiz yuqorida ko'rsatilgan narxdagi summani (Toshkent shahri uchun **370 760** so'm. Viloyatlar uchun **419 120** so'm) kiritasiz. Obuna bo'lganingizdan so'ng **71 233-56-36, 71 233-42-92, 71 233-85-09** telefon raqamlari orqali tahririyat bilan bog'lanishni unutmang.

Bizga to'lov qilinganligi haqida fotoma'lumot va gazetani yetkazib berish manzilini yuborishingiz kerak.

Endi **Payme** va **CLICK** orqali
to'lov qilib obuna bo'ling!


Qo'shimcha xizmat
to'lovlarisiz tahririyat bilan
to'g'ridan-to'g'ri
obuna shartnomasini
tuzing.

Gazetalarimizga 2022-yil uchun obuna davom etmoqda!



Marifat

Узбекистан



f facebook.com/marifat.uz

t t.me/marifatziyo

www www.marifat.uz

(71) 233-56-36

(99) 040-00-76

(71) 233-42-92

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:


O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba
uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150, V-4923. Tiraji 7218.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona - (71) 233-50-55;
kotibiyat - (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi -
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.